

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi  
08-442-guruh bitiruvchisi Abdulazizova (Qodirova) Maftuna

Shavkatjonovnaning

**“Tasviriy san'atda kompozitsiya”**

mavzusidagi

**BITIRUV MALAKAVIY**

**ISHI**

Ilmiy rahbar: tasviriy san'at  
o'qituvchisi Qurbonova B.M.

Farg'ona – 2012

Битирув малакавий иш кафедранинг 2012 йил 16 майдаги йиғилишида муҳокама қилинган ва ҳимояга тавсия этилган.

Кафедра мудири \_\_\_\_\_ З.Ақбарова

Тақризчилар 1.  
2.

## MUNDARIJA

<b>Mavzu: Tasviriy san’atda kompozitsiya.....</b>	
Kirish.....	
<b>I. bob. Tasviriy san’atda kompozitsiya tushunchasi.....</b>	
1.1. Kompozitsiya tarixining rivojlanishi.....	
1.2. Kompozitsiyaning asosiy qonun-qoidalari.....	
<b>II-bob. Tasviriy san’at janrlari va ularda kompozitsiya tushunchasi.....</b>	
2.1. Inter’er, manzara, portretda kompozitsiya.....	
2.2. Mayishiy, dastgohli kitob grafikasi va plakat kompozitsiyasi.....	
Xulosa.....	
Tavsiyalar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar.....	

## **Kirish**

Tasviriy san'at tarixining rivojlanish jarayonlari juda qadim eramizdan avvalgi davrga borib taqaladi. G'orlardagi devoriy rasmlar, toshdan va suyakdan yasalgan haykalchalar, tosh plitalardagi va kiyik shohlari parchalaridagi naqshinkor estetik bezaklar hali inson badiiy ijodiyotini ongli ravishda tasavvur qilishdan birmuncha ilgari yuzaga kelgan.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek "Xozirgi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'bek rassomlarining keyingi yillarda samarali ijod qilib, yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritayotgani, bu sohaga ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelayotgani uning ravnaqi va istiqbolidan dalolat beradi. Bunday ijobiy o'zgarishlarni monumental san'at sohasida ham kuzatish mumkin. Ma'lumki, monumental san'at deganda, avvalo katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan mahobatli haykallar va yodgorliklar majmualarini tushunamiz."<sup>1</sup>

San'at estetik ehtiyojlarni qondirish, ommaning estetik jixatdan o'ziga xizmat qilishi lozimligini chuqur his etamiz. Inson ijod qilgandagina, bevosita san'at asarlari yaratgandagina san'atkor bo'lib qolmay, u san'at asarlarini idrok etayotganida ham ijodkor ekanligini tushunishga yordam beradi. Shuning uchun hozirgi kunda moddiy, ma'naviy boyligimiz, san'at asarlarini idrok etish va taxlil qila olishga o'rgatish muxim zaruriyatga aylandi.

San'atning, shu jumladan, tasviriy san'atda kompozitsiyaning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u tasviriy san'at tur va janrlarining barchasida ishtirok etadi. Insonni ma'naviy tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham biz bugungi kunda ta'lim tarbiya soxasidan boshlab, matbuot, televidenie, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va xaykaltaroshlik san'atigacha, bir so'z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan barcha

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" 147-148 bet.

soxalardagi faoliyatimizni xalqning ma'naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur.

Bu haqida gapirganda, shuni ta'kidlash joizki, ana shu soxa vakillari, ya'ni o'qituvchi va murabbiylar, yozuvchi va jurnalistlar, kino va teatr ahli, musiqachilar va rassomlar, umuman ziyolilarimiz xalqimiz uchun yangicha voqeylik bo'lmish bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida jamiyat oldidagi ma'naviy burchini chuqur his etgan xoda, o'z iste'dod va maxoratni ayamadan astoydil mehnat qilmoqda.<sup>1</sup>

### **Mavzuning dolzarbligi**

Mavzuning dolzarbligi shundaki, tasviriy san'atda kompozitsiya tushunchasi juda qadimdan rivojlanib kelayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Kompozitsiya o'quv predmet sifatida qalamtasvir, rangtasvirdan keyin paydo bo'ldi va hozirda kompozitsiya kursi oliy ta'lim kasb – xunarleri o'quv rejalariga kiritilgan.

Pedagogika universitetlarining badiiy-grafika fakultetlarida kompozitsiya fani talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga kompozitsiya qonun-qoidalarini xaqqoniy tasvirlash usullarini o'rgatadi.

Tasviriy san'atda kompozitsiya qalamtasvir, soya-yorug', rang, havo va chiziq perspektivasi kabi tasviriy vositalar bilan yaratiladi.

Kompozitsiya kursi talabalarni mustaqil ijodiy va pedagogik faoliyatida obrazli fikr yurgizishida katta ahamiyatga egadir. Kompozitsiya fani suhbat, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardan iborat. Kompozitsiyani asosiy qonun, qoidalari, usul va vositalari, talabalar tomonidan amaliy mashg'ulot va suhbatlar jarayonida mukammal o'rganiladi. Kompozitsiya – o'quv narsasi haykaltaroshlik, me'morchilik, grafika, qalamtasvir, rangtasvir, san'at tarixi kabi mutaxassis fanlar bilan uzviy bog'liqdir.

---

<sup>1</sup> I.Karimov "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" Toshkent 2008 y To'rtinchi bob.. vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori. Inson qalbiga yo'l. 129-130 betlar.

Shu sababli kompozitsiya qonun-qoidalarini bo'lajak mutaxassislik soha egalari kelajak avlodga mukammal bilim berishda chuqur o'zlashtirishlari lozim.

### **Maqsad va vazifasi**

Tasviriy san'atda kompozitsiya qonun va qoidalari insoniyatning ibtidoiy taraqqiyot davridan boshlab shakllana boshlagan. Ibtidoiy davr odamlari hayotni zehn bilan kuzatsalarda, kompozitsiya sezgisi juda bo'sh rivojlangan. Bunday holatni odam

gavdasi va hayvonlarning tartibsiz, alohida tasvirida ko'rishimiz mumkin.

Qadimgi sharq san'atidagi kompozitsiya ibtidoiy davrdan alohida farq qiladi. Qadimgi sharqda kompozitsiya mavzusi tekislikda qat'iy ma'lum tartibda tasvirlanib, quldorlik jamiyatining marosimlari qonunlariga bo'ysundirilgan.

Qadimgi Misr san'atida kompozitsiyaning dastlabki yangi usullari namoyon bo'la boshlagan. Bu esa jamiyatda ijtimoiy hayotning ongli rivojlanishi natijasidir. Tasvirda chizgi, o'cham, rang va tus munosabatlari yuqori darajaga ko'tarildi.

Qadimgi dunyo rassomlari tabiat yaratgan o'simlik, barg va gullarning tuzilishida, yil faslining ketma-ket kelishida simmetiya va ritm tushunchalarini anglab, o'z ijodiy asarlarida, kompozitsiyada qo'llay boshladilar. Shuning uchun qadimgi greklar relyef, fronton kompozitsiyalarida ritm va simmetriyalaridan unumli foydalanganlar. Uyg'onish davrigacha kompozitsiya faniga bag'islangan biror-bir nazariy qo'llanma yaratilmagan.

Tasviriy san'atga bu qadar chuqur, falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stillashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy tosh va suyak o'ymakorligi san'at darajasida o'z o'rnini topdi.

Bunday xolat hozirgi kunda xalq ustalari muallimlar va san'at havaskorlari oldiga bu san'at turini saqlabqolish ularni har tomonlama o'rganish va rivojlantirish, yosh avlodga san'at sir-asrorlarini o'rgatish orqali o'rinbosarlar tayyorlash san'at asarlarini keng targ'ib qilish orqali

jamoatchilikni estetik didini, madaniy darajasini yanada yuqori bosqichga ko'tarilishiga erishish vazifalarini qo'yadi.

Mavzuning maqsadi kompozitsiya asoslarini nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish.

### **O'rganilganlik darajasi**

Tasviriy san'at kompozitsiyasining qonun-qoidalaridan foydalanish ibtidoiy davrdan boshlab shakllangan Tabiatga sergaklik bilan e'tibor berib, barglar, shohlar, gullarning tuzilishini kuzatganlar, yil fasllarining takrorlanib kelishi, kun va tunning farqlarini anglab tabiatdagi ritm va simmetriyani tushunib yetganlar. Masalan, qadimgi greklarning relyeflarida ritm aniq sezilib turadi. "Kompozitsiya" ustida ishlash va barcha tayyorlov bosqichlari ijodiy jarayon hisoblanadi.

Ijod - bu inson ongining yuqori va murakkab darajasidir. U insonning bilimi, malakasi, xayotiy tajribalari natijasida tug'iluvchi mo'jizadir.

Tasviriy san'atda ijodning natijasi badiiy asar yaratilishidan iborat.

Badiiy ijodning mohiyati, ijod faoliyatining strukturaviy faktorlarga bo'linishi masalasida qiziqarli g'oyalar L.G.Ermashning o'tkazgan "San'atning ijodiy tabiati" tadqiqotida berilgan. Ijodning kuchi «ruxiy va amaliy qobiliyatlar» - bu mexnat, ilxom, xotira, tafakkur, badiiy talant, xayol, hissiyot kabilar yordamida amalga osha boradi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida nafaqat kompozitsiya bo'limi yoki uning mazmun mohiyati balki, kompozitsiyaning tasviriy san'atning barcha tur va janrlarida to'la mazmun sifatida ishtirok etishi xaqida ma'lumotlar jamlandi.

## **Amaliyotda tutgan o'рни**

Har qanday ijodkor o'tmishdagi rangtasvir sana'ti ustalari merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir, kompozitsiya qonun uslubiyatini xam o'rganadi. Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o'xshatish, kontrast qonun vositalari mazmuni va g'oyaga bo'ysinib kompozitsiyaning asosiy qonunlari hisoblanadi. Bu qonunning belgilari E.Kibrikning kitobida to'la va chuqur analiz qilib berilgan. Kompozitsiyada yaxlitlik belgisi qonuniga rioya qilinganligi sababli, san'at asari bo'linmas bir butun bo'lib ko'rinadi. Kompozitsiya yaxlitligida kompozitsiya elementlari shakl, xajm, «dog», oralik xarakter nusxa, imo-ishora bilan ifodalanadi. Misol tariqasida I.Repinning «Krestniy xod v Kurskoy gubernii» kartinasi bir qarashda yaxlit «dog» shaklida ko'rinadi.

Kompozitsiyadagi omma-xaloyiq tasviri diogonal joylashgan bo'lib, kartinani to'rt burchagini bog'lab turadi. Kartinada nixoyatda ko'p sonli xaloyiq jamoa tasvirlangan bo'lib, xar bir kishi xarakteri salbiy, ijobiy obrazlar orqali va sinfiy qarama-qarshiliklar, xullas rus jamiyati o'z ifodasini topgan.

Qadimgi sharq san'atidagi kompozitsiya ibtidoiy davrdan alohida farq qiladi. Qadimgi sharqda kompozitsiya mavzusi tekislikda qat'iy ma'lum tartibda tasvirlanib, quldorlik jamiyatining marosimlari qonunlariga bo'ysundirilgan.

Qadimgi Misr san'atida kompozitsiyaning dastlabki yangi usullari namoyon bo'la boshlagan. Bu esa jamiyatda ijtimoiy hayotning ongli rivojlanishi natijasidir. Tasvirda chizgi, o'cham, rang va tus munosabatlari yuqori darajaga ko'tarildi.

Qadimgi dunyo rassomlari tabiat yaratgan o'simlik, barg va gullarning tuzilishida, yil faslining ketma-ket kelishida simmetiya va ritm tushunchalarini anglab, o'z ijodiy asarlarida, kompozitsiyada qo'llay boshladilar. Shuning uchun qadimgi greklar relyef, fronton kompozitsiyalarida ritm va simmetriyalaridan

unumli foydalanganlar. Uyg'onish davrigacha kompozitsiya faniga bag'islangan biror-bir nazariy qo'llanma yaratilmagan.

Zamonaviy tasviriy san'atda esa kompozitsiya qonun-qoidalarining qo'llanilishi yanada yangi ilg'or bosqichlarga ko'tarilib bormoqda.

### **Metodologiyasi**

Xozirgi vaqtda biz kompozitsiyaning nazariy asoslarini ikki guruxga ajratamiz: 1. Kompozitsiya qonunlari. 2. Kompozitsiya qoida va usullari.

Kompozitsiyaning asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash, kompozitsiya mavzysi markazini aniqlash, simmetrik yoki assimetrik xolati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy qurilmasini joylashtirish. Ritm hayotda va san'atda mavjudligi rassom uchun yaxshi belgi, vositadir. U bir elementning oraliqda galma-gal qaytarilishidir. Asar g'oyasining kompozitsiya tuzilishi idrok etishda ritm estetik obrazli tasavvur rolini o'ynaydi va kontrast rang, ton qonunlariga suyanadi.

Uzoq kenglik ochiq manzarada gorizontal xolatda tasvirlansa, kenglik bepoyon, katta bo'lib tuyuladi. V.Meshkovning "Ural haqida o'ylar" manzarasi gorizontal uzun hajmda joylashtirilib tasvirlangan. Oldingi va orqa plandagi kontrast yorqin ranglar, yengil ufq chizig' masofani, bepoyon kenglikni aks ettiradi.

Kompozitsiyani gorizontal usulda ifodalashda tinch, osoyishtalik holatini sezamiz. Kompozitsiyani parallel, vertikal yo'nalishda bo'lishi tantanali, ulug'vor, ko'tarinki ruh holatini anglatadi. Bunga L.Abdullayevaning "Qo'riq yer ovchilari" kartinasi misol bo'lishi mumkin. Diogonal yo'nalishi esa harakat xolatining kuchayishi yoki susayishini ko'rsatadi. V.Surikovning "Boyarnya Morozova" kartinasi chananing harakatdagi yo'nalishi, chopib borayotgan bola, hayajon bilan kuzatib turgan turli libosdagi haloyiq-omma pastki o'ng burchakdan, yuqori- chap burchakka diogonal yo'nalishda tasvirlangan. Asarda harakat yo'nalishini o'ngdan chapga susaygan holati masofaning chuqurligini ifodalashga imkoniyat beradi.

Tasviriy san'at kompozitsiyasining qonun-qoidalaridan foydalanish ibtidoiy davrdan boshlab shakllangan Tabiatga sergaklik bilan e'tibor berib, barglar, shohlar, gullarning tuzilishini kuzatganlar, yil fasllarining takrorlanib kelishi, kun va tunning farqlarini anglab tabiatdagi ritm va simmetriyani tushunib yetganlar. Masalan, qadimgi greklarning relyeflarida ritm aniq sezilib turadi. «Kompozitsiya» ustida ishlash va barcha tayyorlov bosqichlari ijodiy jarayon hisoblanadi.

Bunday o'ziga xos metodik jixatlar keyingi mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar natijasi hisoblanadi.

### **Natija va ilmiy farazi**

Ta'limning samaradorlik mezonini, uning xalqaro standartlar talabiga javob berishi bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi davlat standarti, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (2002-yil 21-fevral 54-sonli) buyrug'i bilan tasdiqlanib hayotga joriy qilinmoqda. Uzluksiz ta'lim standartlarining davlat tizimidagi Oliy ta'lim talablari ishlab chiqilgan. Xamma fanlar qatori tasviriy san'at bo'yicha Davlat ta'lim standarti, qo'yilgan talablar maqsad va vazifalar ishlab chiqilgan.

Tasviriy san'atda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlari o'qitiladi. «Kompozitsiya» tasviriy va amaliy san'atning xamma turlari janrlarida mavjud bo'lib, asarning asosiy negizini tashkil etadi.

Kompozitsiya so'zi lotinchadan «Kompositio»- yani predmetlar bo'laklarini solishtirib, ma'lum tartibda yaxlitda joylashtirish, g'oyaga muvofiq ijod qilish bayon qilish, kompozitsiya tuzish demakdir.

Kompozitsiya o'quv predmet sifatida qalamtasvir, rangtasvirdan keyin paydo bo'ldi va hozirda kompozitsiya kursi oliy ta'lim kasb – xunarlarini o'quv rejalariga kiritilgan.

Natija va ilmiy faraz sifatida juda ko'p ma'lumotlarga asoslanib yangicha fikrlar taklif qilish o'rinsiz. Ammo, zamonaviy innovatsion

texnologiyalar texnikalari kirib kelishi tasviriy san'atning yangicha tasvirlash usullarini paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli Zamonaviy tasviriy san'atni rivojlanishida kompyuter grafikasi sohasida ham mukammal mutaxassis sifatida rassom dizaynerlar faoliyat yuritsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Ob'yekti**

Rassom ustaxonasida ijodkor bilan hamkorlik kompozitsiya asoslari va uning amaliyotda qo'llash usullarini o'rganish.

Kompozitsiyada qalamtasvir asoslari, buyum naturada perspektiva, yorug'-soya nisbatlarini tasvirlanishini amaliyotda o'rganish.

Kompozitsiyada rangtasvir asoslari, naturada havoii perspektiva, rang kontrasti, sinonim, antonym, mutanosblik xususiyatlarini aniqlashga erishish.

Palitrada ranglar ketma-ketligi darajasini yaratish orqali tasvirlanayotgan rasmga asholar texnologiyasi orqali sayqal berish.

### **Strukturasi**

Struktura jixatidan ikki bob to'rt paragrafdan iborat. Har bir bob orqali bayon etilgan ma'lumotlar kelgusida olib boriladigan tadqiqot ishlari uchun manbaa bo'lib xizmat qiladi. Barcha paragraflarda ikki bobga doir muammolar, natijalar va mavzuga oid materiallarni aniq ketma-ketlik asosida analiz qilib chiqilgan.

Kompozitsiya tarixi insoniyat tarixining ibtidoii davridanoq boshlab shakllana boshlangan. Keyinchalik esa inson tafakkuri rivojlanishi natijasida u yanada takomillashib o'z qonun-qoidalarini ishlab chiqqan, talaba bitiruv malakaviy ishida bu xaqida batafsil va aniq ma'lumotlar beradi.

II-bob 1-2 paragraflarida tasviriy san'at janrlari va ularda kompozitsiya tushunchasi, inter'er, manzara, portretida kompozitsiya, mayishiy, dastgohli kitob grafikasi va plakat kompozitsiyasi kabi mavzular yoritiladi.

## **I BOB. TASVIRIY SAN'ATDA KOMPOZITSIYA TUSHUNCHASI.**

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq isloxotlar izchillik bilan amalgam oshirilmoqda. Mazkur dastur strategik maqsadga erishishning demokratik davlat fuqorolik jamiyatni shakllantirishning asosi bo'lib kelmoqda.

Jamiyatni yangilashga qaratilgan ulug'vor maqsadga ezgu niyatlarga erishish, taraqqiyot va porloq istiqbol yo'lida amalga oshirilayotgan isloxotlarning samaradorligi, zamon talabiga javob bera oladigan kadrlar – mutaxassislar tayyorlash bilan bevosita bog'liqdir. Islox qilish jarayoni Oliy ta'lim tizimi oldiga qo'ygan asosiy talablardan biri mutaxassislar tayyorlashda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan samarali foydalanish hisoblanadi.

Ta'limning samaradorlik mezonini, uning xalqaro standartlar talabiga javob berishi bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi davlat standarti, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (2002-yil 21-fevral 54-sonli) buyrug'i bilan tasdiqlanib hayotga joriy qilinmoqda. Uzluksiz ta'lim standartlarining davlat tizimidagi Oliy ta'lim talablari ishlab chiqilgan. Xamma fanlar qatori tasviriy san'at bo'yicha Davlat ta'lim standarti, qo'yilgan talablar maqsad va vazifalar ishlab chiqilgan.

Tasviriy san'atda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlari o'qitiladi. «Kompozitsiya» tasviriy va amaliy san'atning xamma turlari janrlarida mavjud bo'lib, asarning asosiy negizini tashkil etadi.

Kompozitsiya so'zi lotinchadan «Kompositio»- yani predmetlar bo'laklarini solishtirib, ma'lum tartibda yaxlitda joylashtirish, g'oyaga muvofiq ijod qilish bayon qilish, kompozitsiya tuzish demakdir.

Kompozitsiya o'quv predmet sifatida qalamtasvir, rangtasvirdan keyin paydo bo'ldi va hozirda kompozitsiya kursi oliy ta'lim kasb – xunarlarini o'quv rejalariga kiritilgan.

Pedagogika universitetlarining badiiy-grafika fakultetlarida kompozitsiya fani talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga kompozitsiya qonun-qoidalarini xaqqoniy tasvirlash usullarini o'rgatadi.

Tasviriy san'atda kompozitsiya qalamtasvir,soya-yorug', rang, havo va chiziq perspektivasi kabi tasviriy vositalar bilan yaratiladi.

Kompozitsiya kursi talabalarni mustaqil ijodiy va pedagogik faoliyatida obrazli fikr yurgizishida katta ahamiyatga egadir. Kompozitsiya fani suhbat, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardan iborat. Kompozitsiyani asosiy qonun, qoidalari, usul va vositalari, talabalar tomonidan amaliy mashg'ulot va suhbatlar jarayonida mukammal o'rganiladi. Kompozitsiya – o'quv narsasi haykaltaroshlik, me'morchilik, grafika, qalamtasvir, rangtasvir, san'at tarixi kabi mutaxassis fanlar bilan uzviy bog'liqdir.

Qalamtasvir va rangtasvirda rassom bevosita kompozitsiya asoslariga murojaat qiladi, uning qonun – qoidalarini bilmay turib kompozitsiya, qalamtasvir, rangtasvir mohiyatini tushunib yetmaydi. Ushbu kompozitsiya o'quv qo'llanmaning maqsadi tasviriy san'atning rivojlanish tarixi, badiiy ijodning asosiy qonun-qoidalari, vositalari va ularni pedagogika universitetlarining “Badiiy – grafika” fakultetlarida o'qitish metodlari haqida tavsiyalar, tushunchalar beradi. Shuning uchun rassom-o'qituvchilarni tayyolashda kompozitsiya fanining eng murakkab va muxim fan sifatida o'rganish tavsiya etiladi.

Tasviriy san'atda kompozitsiya qonun va qoidalari insoniyatning ibtidoiy taraqqiyot davridan boshlab shakllana boshlagan. Ibtidoiy davr odamlari hayotni zehn bilan kuzatsalarda, kompozitsiya sezgisi juda bo'sh rivojlangan. Bunday holatni odam

gavdasi va hayvonlarning tartibsiz, alohida tasvirida ko'rishimiz mumkin.

Qadimgi sharq san'atidagi kompozitsiya ibtidoiy davrdan alohida farq qiladi. Qadimgi sharqda kompozitsiya mavzusi tekislikda qat'iy ma'lum tartibda tasvirlanib, quldorlik jamiyatining marosimlari qonunlariga bo'ysundirilgan.

Qadimgi Misr san'atida kompozitsiyaning dastlabki yangi usullari namoyon bo'la boshlagan. Bu esa jamiyatda ijtimoiy hayotning ongli rivojlanishi natijasidir. Tasvirda chizgi, o'cham, rang va tus munosabatlari yuqori darajaga ko'tarildi.

Qadimgi dunyo rassomlari tabiat yaratgan o'simlik, barg va gullarning tuzilishida, yil faslining ketma-ket kelishida simmetiya va ritm tushunchalarini anglab, o'z ijodiy asarlarida, kompozitsiyada qo'llay boshladilar. Shuning uchun qadimgi greklar relyef, fronton kompozitsiyalarida ritm va simmetriyalaridan unumli foydalanganlar. Uyg'onish davrigacha kompozitsiya faniga bag'islangan biror-bir nazariy qo'llanma yaratilmagan.

### ***1.1. Kompozitsiya tarixining rivojlanishi***

Insoniyat tashqi dunyoni tasvirlashga intilishi juda qadim zamondan ma'lum. Ibtidoiy davridayoq odamlar mamont suyaklarida, g'orlarda, toshlardagi chizgilarda maxoratga erishganlar. Ular xayotni zexn bilan kuzatsalarda, kompozitsiya sezgisi juda bo'sh rivojlangan, Ularning tasviriy san'at namunalari tasodifiy emas, balki ko'p yillik mexnat tajribasining natijasi ekanligiga guvoh bo'lamiz. Kattiq jism inson qo'lida pichoq shakliga kelguncha uzoq muddatli bosqichlarni, tarixiy voqealarni bosib o'tgan. Inson qo'li bilan hayot uchun zarur bo'lgan maxsulot asbob - buyumlarning shakli, jixati, avloddan-avlodga, otadan bolaga o'tish natijasida o'zgarib boradi. Hayotda inson qo'li bilan murakkab mexnat jarayoni orqali yuqori malakaviy bosqichga erishildi va uning sexrgar kuchi Rafael asarlarida, Potanin musiqasida namoyon bo'ldi. Odamlar o'zlariga boshpana qurishni, uy jixozlarini yaratishni, shuningdek tasviriy san'at vositalarini birdaniga anglamadilar. Inson ming yillar davomida qo'llagan tajriba asosida tabiat dunyosini, qush va

xayvonlarni chizgilarda tasvirlay boshlagan. Jonli kuzatish natijasida rasm chizishni o'rgatish amalga oshirilgan.

Insoniyat jamiyat taraqqiyotining pastki pog'ona rivojlanish bosqichida tasviriy san'at mehnat jarayoni bilan bog'liq to'plangan bilimlari keksa avloddan farzandlariga meros bo'lib o'tgan. Bolalar kattalarga taqlid qilish yo'li bilan rasm chizish bilimini egallashdi. Yerga ishlov va xunarmandchilik insonni san'atga bo'lgan munosabatini o'zgartirdi. Rasm chizishni tushuna bordi va aloxida kasb sifatida foydalandi. Meros qolgan bilimlarini yasagan buyum-ash'yolarni tashqiga tasvirni tushirib bezak berdilar. An'analarni rivojlantirib o'qitish uslubi xam o'zgarib, ijodiy fikrlash rivojlanib bordi. Usta - xunarmand shogirdining muvaffaqiyatiga befarq bo'lmadi. Unga ishlarni qanday bajarish yo'llarini uqtirdi.

Shunday qilib, o'qitish uslub yo'llari o'zlashtira boshlandi. Lekin aniq ishlab chiqilgan o'qitish uslublari yo'q edi. San'atga o'qitish (maktab tashkil qilish) asosan sivilizatsiya taraqqiyot davrida paydo bo'ldi. Taraqqiyot davridagi tasvirlashga o'rgatish metodlarini o'rganishdan oldin rivojlangan qadimgi Misr san'atiga murojaat qilamiz. Shaxarlar va ularda saroy, qasr-koshonalar, jamoat binolari qurilishi bilan ko'p sonli xunarmand va rassomlarga zaruriyat tug'ildi. Rangtasvir, xaykaltaroshlik, amaliy san'at ustalariga talab kuchaya bordi. Shu bois maxsus maktab tashkil qilish zarur bo'ldi. Tasvirlashda to'plangan tajriba qadimgi Misr musavvirlariga o'simlik dunyosi, xayvonlar, odam qiyofasi, narsalarni qurish, tasvirlash qonunlari, uslub - usullarini ishlab chiqish imkonini berdi. Rassomlar asarlari asosan saroy, koshona, jamoat binolarini bezatishga mo'ljallanar edi. Ular avliyo, faraon, muxim tarixiy vokealarni

tasvirlashdi. Shuning uchun tasviriy san'at qoidalari buyurtma talabiga, diniy afsonalarga muvofiqlashtirilardi. Xudoga sig'inish, diniy marosimlarga amal qilishni talab qilardi. Musavvir faraonni tasvirlashda Shox tantanasi marosimini talablariga qat'iy rioya qilishi zarur edi. Tik turgan odam

qiyofasiga, yurayotgan, o'tirgan, cho'k o'tirgan, xarakatdagi odamlarni tasvirlashga axamiyat berilar edi. Shuningdek muqaddas qush va xayvonlarni tasvirlashga qoida ishlab chiqilgan edi. Bu belgilangan qoidalar bir tomondan rassom uchun tasvirlash jarayonini engillashtirsa, boshqa tomondan rassomni erkin ijodiy fikrlashini chegaralab qo'yardi. Bu qoidalar rassomga xaqiqiy xayotni qanday ko'rsa, shunday tasvirlashga imkon bermasdi.

Ibtidoiy davrda rassom faoliyati qadimgi Misr Tasviriy san'at qonunlariga muvofiqlashtirilgan edi. Misr rassomlari odam qiyofasini tasvirlashida maxsus «Kanon» ishlab chiqilgan edi. Buning uchun misrliklar odam qiyofasini o'lcham tizimida 19 ta bir xil bo'laklarga bo'lib chiqishdi. Odam qiyofasini nisbatlarini aniqlash, pastdan yuqoriga qarab o'lchangan: oyoq tovonni balandligi barmoq uzunligiga teng. Taz suyagi odam qiyofasini o'rtasidan ikki bir xil bo'lakka bo'linib turadi. Shuningdek, odam gavdasini tuliq tasvirlash vositalari, ko'z, burun, og'iz xajmi tananing barcha qismlarining nisbat o'lchamlari belgilangan edi. Yukoridagi bilimlarni egallagan rassom odam qiyofasini xar yerdan to'g'ri tasvirley oladi. Bizni hozirgi tasavvurimizdek, qadimgi Misr rassomlaridan xaqiqatni xayotiy tasvirlash talabi qo'yilmasdi. Misr rassomlarining asarlarida uch o'lcham tasviri -perspektiva, soya, yorug' mavjud bo'lmagan, tasvir chiziqli xususiyatga ega edi. Bu an'analar eramizdan 4 ming yil avval shakllanib, bir necha ming yillar davomida qat'iy amal qilib kelingan.

Rasm chizish o'quv narsa sifatida maktabda o'qitish shakllandi, bunga aloxida e'tibor berila boshlandi. Chunki ieroglifik yozuv xarflar bilan birga xar xil narsalarni tasvirlashni talab qilardi.

Misrliklar rasm chizishda loyli taxta ko'mir, mo'yqalam, buyoq va temir qalamchalardan foydalanar edilar. Shunday qilib qadimgi Misr davrida rasm chizish maktablarda predmet sifatida o'qitilganini guvoxi bo'lyapmiz. Mashg'ulotlar qabul qilingan «Kanon» tasvirlash qoidalariga amal qilgan xolda olib borilar edi.

Greklarning rassomlari esa yosh avlodni o'qitish muammosiga yangicha yondashdilar. Naturani o'rganishda estetik jihatdan yangi badiiy ma'naviyat kiritdilar. Odamzotni greklar yer yuzida eng go'zal mavjudot deb bilar, o'zlarini xudolarini odamzod qiyofasida bilardilar. Zevs - keksa bilimdon avliyoni, Afina - grek ayolini, Appalon - jasur paxlavonni eslatadi. Greklar odam qiyofasini tasvirlash qonun asoslarini simmetriya va garmoniyani matematik ravishda bir biriga muvofiq yaxlit birlikni tashkil etishini ta'kidladilar. Eramizdan avvalgi 432- yili Siksonada xaykaltarosh Poliklet odam qiyofasidagi mavjud proporsional o'lcham teoriasini «Dorifor» xaykalida na'muna tariqasida yaratdi. Gretsiyada dong taratgan rassom Appolodora birinchi bo'lib yorug' soyani kashf etdi, narsalarning xajmdor tasvirini qo'lladi.

Appolodor mashxur rassom, ajoyib pedagog edi. O'z maktabini ochdi, naturani chuqur o'rganish asosida tasviriy san'atda go'zallik kanonini yaratdi. Gretsiyani eng go'zal ayoli obrazini yaratish uchun besh naturshitsadan eng go'zal shakli obrazini, go'zal ayol qiyofasini yaratdiki, ko'rganda insonga zavq, quvonch baxsh etadi. Greklar rasm chizish texnikasidan tashqari anatomiyani yaxshi bilganlar.

Eramizdan avvalgi IV asrda Gretsiyada bir necha tasviriy san'at maktabi mavjud bo'lgan: Sikion Efes va Fivan maktablardir. Ulardan Sikion tasviriy san'at maktabi tabiat qonuniga, ilmiy ma'lumotlarga asoslangan o'qitish metodikasi tasviriy san'atni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Bu maktabda Pamfil, Melantin, Pavziy va Apelles kabi ulug' rassomlar yetishib chiqdi. Pamfil Sikion maktabini rivojlantirdi, keng fikrli rassom sifatida tasviriy san'atning ilmiy asoslariga muxim axamiyat berdi.

Uyg'onish davri renessans insoniyatga ulug' san'at allomalarini yetkazib berdi. O'sha davr rassomlari esdalik, kundalik, ilmiy maqolalarida kompozitsiya xaqida qimmatli fikr, xulosalarni yozib qoldirdilar.

Erta uyg'onish davrining vakillari Djotto va Mazachcho o'z ijodlarida perspektiva, plastik anatomiya, geometriya qonunlarini amalda

qo'llab, kompozitsiya fanining bilimdoni ekanliklarini misolda ko'rsatdilar. Yuqori uyg'onish davri rassomlari san'atning xar xil turlarini bir-biri bilan bog'lab, uning nazariyasini ilmiy asoslagan xolda rivojlantirdilar. Ular perspektiva yordamida kartinada chuqurlik, masofani tasvirini xaqqoniy namoyon etishga erishishdi. Ko'p yillik kuzatuv va taxlil natijasida ko'zga ko'ringan rassomlarning asarlarini g'oya tuzilishi, rang echimidagi uslub, amaliy tajribalarini umumlashtirib Alberti "Rang tasvir xaqida uch kitob" ilmiy nazariy meros yozib qoldirdi. Leonardo da Vinchi va Alberti o'z maqolalarida va badiiy asarlarida statik (xarakatsiz) va dinamikaga (xarakat) aloxida axamiyat bergan edi. Fransuz rassomi E. Delakrua o'z kundalik va ilmiy maqolalarida Leonardo da Vinchi, A. Dyurer, P. Rubenslarni kompozitsiyaga oid qonunlarini kengaytirib chuqur ma'nolar bag'ishlab davom ettirdi.

Inson qalbiga Olloxdan in'om etilgan go'zallik va qobiliyatni o'ziga mujassam etgan allomalarni yer yuzida kelishini insoniyat bir necha bor guvoxi bo'lgan. Leonardo da Vinchini xar qanday mushkul ishlarni osonlik bilan uddasidan chiqadigan odil inson shaklida ko'ramiz.

Vinchi shaxridagi janob Peroning o'g'li Leonardo shunday iloxiy kuch-qudratga ega ediki, u bir necha oylab, matematika bilan shug'ullanar, lirada musika chalar, qo'shiq aytib malakasini oshirardi. Shunday bo'lsa-da, asosli qiziqishi bo'lgan rasm chizish va xaykaltaroshlikni tashlamadi. Xudo bergan betakror aql-zakovatli, xotirasi kuchli buyuk alloma chizgan tasvirlari bilan insonni xayratga solar, fikr-muloxaza kuchi bilan lol qoldirardi, U Milan shaxrida Dominikanlik aka - ukalar uchun "Maxfiy kecha" nomli go'zal asar yaratdi. Unda avliyolar chexrasiga xusn qo'shib, ulug'vor qilib tasvirladi. Faqat Iisusni yuz qiyofasini tasvirlashda iloxiy qudrati etmay chala qoldirgan va umrini oxirigacha bitira olmagan edi. Leonardo odam anatomiyasini Galena ta'limotiga asoslangan xolda chuqur o'rgandi, murdalarning suyak muskullarini pero va qizil qalamda sinchiklab chiza boshladi va odam anatomiyasi tasvirlari

kitobini yaratdi. U otlar anatomiyasi kitobini xam yaratgan. Bu anatomiyaga oid chizgilarning ko'p qismi Leanardonig avtoportretlari bilan bir qatorda bizlargacha yetib kelgan.

Leanardo Franchesko del Djokondo uchun uning xotini Liza portretini 4 yil mobaynida ishladi, ammo shunday bo'lsada portretni oxiriga etkaza olmadi. Portretda ayolning xamma go'zal xislat, fazilatleri, yarqiragan nam ko'zlari kipriklarigacha jonli odam nigoxi ko'rinishida asosli qilib tasvirlangan. Tasviriy san'atda bunday toj asarning mavjudligi dunyoda eng qobiliyatli, zexnli olim, alloma musavvir qalamiga mansub bo'lishi xaligacha insonlarni beixtiyor xayratga soladi.

XVI asr oxirida kompozitsiya o'quv fani sifatida shakllana boshladi. Buni V. Neleng, S. Vasilev kabi metodistlarning Fransiya safaridan so'ng o'qitish tizimi xaqidagi xisobotlari orqali bilish mumkin. 1882 yili taniqli pedagog - rassom Violie Le Dyukani «Tarixchining tarixi» kitobini rus tiliga tarjima qilgan edi. Bu kitob shaxsiy ish tajribasidan kelib chiqib, tasviriy san'at o'qitish metodikasidan suxbat tarzida berilgan. Bu kitobni «Sochineniye» qismida xayol, perspektiva ma'lum qonunlarga tayanishini uqtirib o'tilgan. Tasviriy san'atda kompozitsiya masalalari xaqida dastlabki metodik bayonnoma muallifi amerikalik pedagog - rassom A. Doudir. Bu o'quv qo'llanmada tasvirda xar xil shakl, tustlarni qog'oz va matoga tug'ri joylashtirish, qog'oz xajmi formatiga aloxida axamiyat bergan. Tasviriy san'atda yangi impressionizm oqimining paydo bo'lishi - rangtasvirda yangilanishga vosita bo'ldi, sa'atning oldinga rivojlanishiga turtki vazifasini o'tadi. Impressionistlar rang politrasiini boyitdi. XX asr boshlarida G'arbiy Evropa davlatlarida va Rossiyada xar xil badiiy oqimlar paydo bo'la boshladi: futurizm, kubizm ekspressionizm, dadaizm, syurealizmlar shular jumlasidandir.

Tartibsiz muloxaza, qarama - qarshi fikrlar kurashi tasviriy san'at va kompozitsiyani o'kitish metodikasiga chalkashlik va taritibsizlik olib kirdi. XX asrning birinchi choragida tasviriy san'at G'arbiy Evropa va Amerikada berk

ko'chaga kirib qolgan edi. Shu bilan birga ko'p san'at maktablarida rassomlar realistik san'at yo'lida kompozitsiya nazariyasini o'rganishni davom ettirdilar. Rossiya tasviriy san'atida XVIII asrgacha ikona rangtasviri taraqqiy etgan. Eng qobiliyatli rus ikonachi rassomlar dan biri Andrey Rublev edi. Uning mashxur: «Troitsa»si ikona janridagi qadimgi klassik kompozitsiya namunalaridan biri xisoblanadi. Kompozitsiyada bu rassom gavda xolatining aniq tasviri, garmoniyasi va yaxlitligiga erishdi. XVIII asr Rus tasviriy san'atida, realistik badiiy maktabning asoschilari A. P. Losenko, G. I. Ugryumovlar xisoblanadilar.

Rossiyada Peterburg Badiiy akademiyasini bitirgan A. Ivanov, A. Egorov, B. Shebuev, A. Venetsiyanov, K. Bryullovlar o'z ijodiy va pedagoglik faoliyatlarida kompozitsiya muammolariga ko'proq ahamiyat berib, tasviriy san'atni yangi pog'onaga ko'tardilar. 1757 yili tashkil topgan Peterburg Badiiy akademiyasida mutaxassislik fanlarini o'qitishni muntazam tarzda yo'lga qo'yilishi, Rossiya tasviriy san'atini rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mashxur rassom va pedagog A.P. Losenko o'z faoliyatida ijodiy yondoshib kompozitsiya masalalari ustida ishladi. U xamma tasviriy vositalar asar g'oyasiga, mazmuniga qaratilgan bo'lishini ta'kidladi.

Losenko o'z vaqtida akademik ta'lim metodini yangilashni angladi va yangi uslub-metodikasini ishlab chiqdi. Yaratgan Akademiya o'kitish nazariyasi XIX asr o'rtalarigacha davom etdi. Losenko davridayoq Rossiya Badiiy Akademiyasi dovrug'i va obro'yi dunyoga tarqaldi. A.P.Losenko yuqori saviyali kompozitsiya ustasi edi. Buni «Vladimir pered Rognedoy» kartinasi misolida ko'rish mumkin. Losen dars bergan tarixiy janr klassida kartina tuzilishi masalalariga ko'p e'tibor berilar edi.

P.I.Sokolov, G.I.Ugryumov, O.A.Kiprenskiy, K.P.Bryullov kabi ulug' rassom pedagoglar A.P.Losenkoda o'qib ta'lim oldilar. Losenko boshlag ishni va Akademiyadagi pedagogik faoliyatni G.I.Kozlov, P.I.Sokolov ( 1782 y.) davom ettirdilar. Ayniqsa Ugryumov, Losenko boshlagan tarixiy janr klassida

kompozitsiyani davom ettirdi, uning kompozitsiya nazariyasini mukammallashtirdi. Uning o'quvchilaridan A.Ivanov, A.Egorov, V.Shebuyevlar xam ustozning uslublarini davom ettirdilar.

Shunday qilib rassom-pedagog va metodistlar XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida tasviriy san'at va kompozitsiyani o'quv narsa sifatida rus badiiy maktabida o'qitilishi mumkinligini isbotladilar. Bu yo'nalish rangtasvir kompozitsiyasi ustasi K.Bryullov tomonidan qo'llab quvvatlandi.

K.Bryullov o'zining pedagogik va ijodiy faoliyatida gavdaning plastik tuzilishiga, asarda kompozitsiya - muvozanatini xaqqoniy tasvirlashga axamiyat berdi. «Pompeyning so'ngi kuni» asari bunga yorqin misol bo'la oladi. Asarda insonning xayotda sodir bo'ladigan xafli, fojiali dramatik daqiqalardagi xolati, tabiatda chaqmoq natijasidagi kuchli yorug' nurlari ostida bo'layotgan ta'sirchan voqea kontrast ranglarda tasvirlangan. Odamlar ko'zidagi qo'rqinch, ularning go'zal nigoxi, xatti xarakatlari, shijoatli onlar badiiy yuksak maxorat bilan, yuqori darajada jozibali tasvirlangan. Bryullov bu asarida badiiy Akademiyaning yuksak an'alarini davom ettirardi.

XIX asrning ikkinchi yarmida ilg'or ma'rifatli rus rassomlari tashqi dunyoni xayotda tug'ri tasvirlash uchun kurash olib bordilar. Realistik san'atning rivojlanishiga I.N.Kramskoy boshliq sayyor rassomlar katta ta'sir ko'rsatdilar. Asosan xalq manfaatini ko'zlab, xayotdagi muxim voqealarni kuzatib, ijod kildilar, asar g'oyasiga katta axamiyat berdilar. Ko'plab rus rassomlarining ustozlari P.P.Chistyakov mutaxassislik fanlarni o'qitishning yangi tizimini yaratdi.

Realistik san'atning buyuk namoyondasi I.E.Repin kompozitsiyani nazariy va amaliy rivojlanishiga muxim xissa qo'shdi. Shuningdek tarixiy janrda har tomonlama yangi novatorlik vositalari bilan V.Surikov rus rassomlariga o'z ta'sirini o'tqazdi. U kompozitsiya eskizini bajarishga aloxida axamiyat berdi. O'ylangan mavzu rassom tasavvurida tiklansa, u darrov qo'lga qalam, ko'mirqalam, mo'yqalam olib eskiz bajarishga kirishardi. Ayniqsa «Boyarina

Morozova» kartinasi uchun o'nlab, yuzlab qalamlavxa, ranglavxa, eskizlar bajargan. U mavzuga oid bo'lib o'tgan tarixiy voqealarni sinchiklab o'rganadi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiya san'atida va o'qitish tizimida ilg'or - progressiv yo'nalish bilan bir qatorda reaksiyon kuchlar ta'sirida, burjua falsafasiga taqlid qilgan yangilik - «novizna» oqimi xam paydo bo'la boshladi. .

Maishiy janrdagi kartina mazmuni, kompozitsiyaning badiiy yuksak yaxlitligi asta - sekin o'z kuchini yo'qota bordi. Buyuk pedagog, rassom Kardovskiy bularga qarshi murosasiz kurash olib bordi va realizm pozitsiyasida turib ximoya qildi. D.Kardovskiy xam P.Chistyakov kabi tasviriy san'atdagi ardoqli pedagog - rassomlardan edi. V.Efanov, D.Shmarinov kabi ko'plab Rossiya rassomlari uning ustaxonasida yaxshi ta'lim oldilar.

Ko'p yillik pedagogik faoliyat mobaynida qalamtasvir va kompozitsiyadan mukammal o'quv tizimi shakllandi. Kompozitsiya xayot xodisalarini obrazli aks ettiruvchi vosita bo'lib, talabalarga ma'lum formatda, oddiydan murakkab eskizlar bajarishga o'tish prinsiplarini qo'ydi. Keyinchalik kompozitsiya nazariyasi, amaliyoti va ularni o'qitish metodikasini asosiy prinsiplarini ishlab chiqishda V. Favorskiy, A.Deyneka, K.Yuon, E.Kibrik, A.Alpatov, G.Nisskiy, F.Reshetnikov, D. Shmarinov kabi ulug' rus rassomlari o'z xissalarini qo'shdilar. Bularning ichida K. Yuon, A.Deyneka, E.Kibrik, M.Alpatovlar qoldirgan ijodiy va ilmiy nazariyasi tadqiqotlarini aloxida ta'kidlab o'tish o'rinli.

Kompozitsiya nazariy asoslarni rivojlantirishda salmoqli xissa qo'shgan rassomlardan yana biri Konstantin Yuondir.

Ulug' rassomlarni asarlari misolida kompozitsiya tuzilishini taxlil qilib kontrast, vertikal, gorizont, diogonal simmetriya, assimetriya, aylana, uchburchak, muvozanat, ritm yaxlitlik, dinamik, statik xolat, yorug', rang koloriti, ko'rish nuqtasi, gorizont, kompozitsiya plani, maxobatlik, dekorativlik kabi tasvir uslublarini ko'rsatib berdi. K.Yuon kompozitsiyani o'qitish metodikasi saviyasini yuqori darajaga qo'yish kerak deb xisoblardi. Xar xil

mavzudagi kompozitsiya eskizini bajarish jarayonida xomaki tasvir, yorug' va ranglarni xar xil xolatida perespektiva qoidalarini ishlata bilishni tavsiya qilardi. Xayot tassurotlarini, gavdaning turli xolati, gurux odamlarning xarakatdagi ko'rinishi, tipaj, liboslar, xona, bino burchaklaridan chizgilar chizib ulardan unumli foydalanishni tavsiya etardi.

Kompozitsiya masalalarini takomillishtirishga munosib xissa qo'shgan buyuk rassomlardan biri E.Kibrikdir. U o'z asarlari bilan grafika san'atini yuqori chuqqilarga olib chiqqan san'at ustalaridan biridir. U o'zining «Kompozitsiya masalalariga doir» (1961 y.) kitobida kompozitsiyani tasviriy san'atdagi ob'ektiv qonunlarni, kompozitsiyani o'qitish soxasidagi metodik qo'llanmadagi kamchiliklarni uqtirib o'tdi. Kompozitsiya qonun - qoidalarini chuqur bilish, ijodkor ongiga sayqal beradi. Yetuk rassomlarning ijodiy tajribasiga va kompozitsiyani o'qitish uslubiyatiga asoslanib Badiiy Akademiya tomonidan 1960-64 yillari nashr etilgan 8 jildli «Shkola izobrazitel'novo iskustva» nomli metodik qo'llanma tasviriy san'at manbaini boyitdi.

Tasviriy san'atda kompozitsiyani rivojlantirish tarixi bilan tanishib, imkoniyat darajasida mavjud fanga tegishli ma'lumotlarni tartibli ravishda o'rganib, kompozitsiya nazariyasi xakida xulosaga ega bo'ldik.

## ***2.2 KOMPOZITSIYANING ASOSIY QONUN - QOIDALARI***

Har qanday ijodkor o'tmishdagi rangtasvir sana'ti ustalari merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir, kompozitsiya qonun uslubiyatini xam o'rganadi. Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o'xshatish, kontrast qonun vositalari mazmuni va g'oyaga bo'ysinib kompozitsiyaning asosiy qonunlari hisoblanadi. Bu qonunning belgilari E.Kibrikning kitobida to'la va chuqur analiz qilib berilgan. Kompozitsiyada yaxlitlik belgisi qonuniga rioya qilinganligi sababli, san'at asari bo'linmas bir butun bo'lib ko'rinadi. Kompozitsiya yaxlitligida

kompozitsiya elementlari shakl, xajm, «dog», oralik xarakter nusxa, imo-ishora bilan ifodalanadi. Misol tariqasida I.Repinning «Krestniy xod v Kurskoy gubernii» kartinasi bir qarashda yaxlit «dog» shaklida ko'rinadi.

Kompozitsiyadagi omma-xaloyiq tasviri diogonal joylashgan bo'lib, kartinani to'rt burchagini bog'lab turadi. Kartinada nixoyatda ko'p sonli xaloyiq jamoa tasvirlangan bo'lib, xar bir kishi xarakteri salbiy, ijobiy obrazlar orqali va sinfiy qarama-qarshiliklar, xullas rus jamiyati o'z ifodasini topgan.

Kompozitsiya xaqiqat qonuni - asosan uchta belgi bilan ifodalanadi. Birinchi belgi bu badiiy asarda sodir bo'layotgan voqeaning o'ziga xosligi. A. Savrasovning «Qora qarq'alar uchib keldilar», I.Levitaning «Oltin kuz», A. Kuindjining «Qayinzorda», A.Rlovning «Xavo rang kenglikda» manzaralarida mazmun, nafosat bilan birga rus tabiatini o'ziga xos obrazi tasvirlangan. Tipizatsiya qonunining ikkinchi belgisi - bu sodir bo'layotgan voqea mavzuini, xarakat xolatini, vaqtini tasvirleydi. Ayniqsa, ko'p figurali kompozitsiya mavzudagi personajlarni xar xil xolatda aks ettirgan I.Repinning «Kutilmagan edi» asarida tamoshabin faqat personajlarni tasvirlangan xolatini emas, balki ular xibsdan qaytgan erini tasodif ko'rishdan oldin nima ish bilan band, qanday xolatda ekanligini tasavvur qiladilar. Keksa onasi royal chalishni to'xtatib, kresloni chetga surib, o'g'lini qarshi olishga o'girilgan.

Kutilmagan uchrashuv. Natijada qalbni to'lqinlantirib ko'zlari quvonch yoshlariga to'la xolatga aylanadi. Bu yerda bo'layotgan kulminatsion daqiqa xayotiy voqeani mavzu bilan bog'lovchi xarakatdagi vositadir. YU.Pimenev «Yangi Moskva», «Ertangi ko'chalarda to'y» (rasmlar) asarida ko'z oldimizda o'zgarayotgan, xarakatdagi zamonaviy shaxar xayotini ko'rsatgan. To'y marosimini yo'nalishida kelajak xayotga shaxdam qadam tashlayotgan xalqlarning xolatidir. Tipizatsiya qonunining uchinchi belgisi bu - yangilikdir. Realistik san'at xaqiqatni to'g'ri ifoda etib qolmay, rassom xis-tuyg'ularini, estetik go'zallikni, tasavvurni jozibali tarannum etadi. Badiiy obrazdagi

estetik sifatlar, kompozitsiya echimidagi yangiliklar rassom tomonidan kashf etiladi.

Estetik kashfiyotlarni Mikelanjelo, Titsian, Rembrantning o'lmas asarlarida, A.Deyneka, K.Yuon asarlarida kompozitsiya tuzilishining badiiy vositalar mavzuda yangilik tushunchasini ko'ramiz. "Novizna" yangilik oqimini biz A.Kuindjining "Qaynzorlar", V.Polenovning "Moskvadagi hovli" manzarasida ko'ramiz.

Kompozitsiyaning asosiy qonunlaridan biri kontrastlik qonunidir. Leonardo da Vinchi "Rangtasvir qonunlari" ilmiy asarida o'lcham qarama-qarshiligi haqida, katta-kichik, past-baland, yupqa-qalin, xarakter, faktura, materiallar kontrasti to'g'risida yozadi. Mikelanjelo tekislikdagi hajm kontrstlariga ko'p ahamiyat beradi. Inson narsalar shaklini faqat soya va yorug' kontrastik orqali sezadi va o'z ongiga singdiradi.

Portret janrida rassomlar qadimdan "ton kontrasti"dan foydalanib, yorug' figurani tasvirlashda to'q fondan foydalanganlar. XIX asrda san'at ustalari portretni yorug' fonda tasvirley boshladilar. B.Serovning "Shaftolilik qiz" portretida yuzi to'q tUSDagi qiz yengil yorug' deraza fonida tasvirlangan.

Rangtasvirda kontrast qarama-qarshi, issiq va sovuq ranglardan iborat, qartama-qarshi ranglar bir-biriga yonma-yon tursa ranglar kuchi ko'payadi. Qizil-yashil, ko'k-zarg'aldoq, oq-qora va xokazo.

San'at asarlarini taxlil qilganimizda, kompozitsiya qoida va usullari o'z mohiyatini asta-sekin yo'qotib, yangi kompozitsiya paydo bo'la boshladi. Badiiy asar yaratishda rassomlar tabiiy va ongli ravishda kompozitsiya qonunlariga rioya qilishadi. Har bir ijtimoiy jamiyat san'at oldiga yangi zamonaviy vazifalarni ko'ndalang qo'yadi.

Xozirgi vaqtda biz kompozitsiyaning nazariy asoslarini ikki guruxga ajratamiz:

1. Kompozitsiya qonunlari. 2. Kompozitsiya qoida va usullari.

Kompozitsiyaning asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash, kompozitsiya mavzisi markazini aniqlash, simmetrik yoki assimetrik xolati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy qurilmasini joylashtirish. Ritm hayotda va san'atda mavjudligi rassom uchun yaxshi belgi, vositadir. U bir elementning oraliqda galma-gal qaytarilishidir. Asar g'oyasining kompozitsiya tuzilishi idrok etishda ritm estetik obrazli tasavvur rolini o'ynaydi va kontrast rang, ton qonunlariga suyanadi.

Uzoq kenglik ochiq manzarada gorizontal xolatda tasvirlansa, kenglik bepoyon, katta bo'lib tuyuladi. V.Meshkovning "Ural haqida o'ylar" manzarasi gorizontal uzun hajmda joylashtirilib tasvirlangan. Oldingi va orqa plandagi kontrast yorqin ranglar, yengil ufq chizig' masofani, bepoyon kenglikni aks ettiradi.

Kompozitsiyani gorizontal usulda ifodalashda tinch, osoyishtalik holatini sezamiz. Kompozitsiyani parallel, vertikal yo'nalishda bo'lishi tantanali, ulug'vor, ko'tarinki ruh holatini anglatadi. Bunga L.Abdullayevaning "Qo'riq yer ovchilari" kartinasi misol bo'lishi mumkin. Diogonal yo'nalishi esa harakat xolatining kuchayishi yoki susayishini ko'rsatadi. V.Surikovning "Boyarnya Morozova" kartinasi chananing harakatdagi yo'nalishi, chopib borayotgan bola, hayajon bilan kuzatib turgan turli libosdagi haloyiq-omma pastki o'ng burchakdan, yuqori- chap burchakka diogonal yo'nalishda tasvirlangan. Asarda harakat yo'nalishini o'ngdan chapga susaygan holati masofaning chuqurligini ifodalashga imkoniyat beradi.

Tasviriy san'at kompozitsiyasining qonun-qoidalaridan foydalanish ibtidoiy davrdan boshlab shakllangan Tabiatga sergaklik bilan e'tibor berib, barglar, shohlar, gullarning tuzilishini kuzatganlar, yil fasllarining takrorlanib kelishi, kun va tunning farqlarini anglab tabiatdagi ritm va simmetriyani tushunib yetganlar. Masalan, qadimgi greklarning relyeflarida ritm aniq sezilib turadi.

“Kompozitsiya” ustida ishlash va barcha tayyorlov bosqichlari ijodiy jarayon hisoblanadi.

Ijod - bu inson ongining yuqori va murakkab darajasidir. U insonning bilimi, malakasi, xayotiy tajribalari natijasida tug'iluvchi mo'jizadir. | Tasviriy san'atda ijodning natijasi badiiy asar yaratilishidan iborat.

Badiiy ijodning mohiyati, ijod faoliyatining strukturaviy faktorlarga bo'linishi masalasida qiziqarli g'oyalar L.G.Ermashning o'tkazgan <<San'atning ijodiy tabiati>> tadqiqotida berilgan. Ijodning kuchi «ruxiy va amaliy qobiliyatlar» - bu mexnat, ilxom, xotira, tafakkur, badiiy talant, xayol, hissiyot kabilar yordamida amalga osha boradi.

**Mehnat** - insonning asosiy faoliyat turlaridan biri hisoblanadi va shu ufayli inson moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadi. Mexnat natijasida san'at asari yaratiladi. Ijodiy mexnat - tabiatni kuzatish, adabiyotlar adabiyotlar o'qish, materiallar yigish, qoralama va xomaki rasm, etyudlar chizish, kompozitsiya eskizlari ustida ishlash, dunyoqarash, maxorat malakalarini egallash va asar yaratish rassomning individual xususiyatlari xolatlaridir.

**Xotira** - badiiy ijodning reproduktiv kuchi hisoblanib, insonning tajribasini namoyon qiladi. Inson xayotida, xar qanday faoliyatida xotirani chetlab o'ta olmaydi, o'sha tassurotlarni taxliliga ko'ra naturasiz kompozitsiya eskizini chiza oladi. Naturadan ishlashda olingan tasavvurlar yig'indisi va ko'rish taasurotlari, asarni qamrab oluvchi qimmatli obrazlar yaratishga imkon beradi. Juda ko'p mashq qilgan va o'zining ko'rish xotirasini rivojlantirgan buyuk rus rassomi A.Serov kichik yoshidayoq xotiradan surat chizishni yoqtirardi. I.K. Ayvazovskiy esa xayron qolarli darajada ko'rish xotirasiga ega edi.

**Iroda** - ijod kuchining samarasini belgilovchi ijod uchun eng zarur psixik jarayonlardan biridir. Iroda - aqliy va jismoniy kuch - quvvatni ongli ravishda boshqara olish demakdir. Murakkab irodaviy xarakat maqsadni

amalga oshirishga olib keladi. Mustaqillik, sabr - toqatlilik, o'z – o'zini boshqaraolish irodaning muxim xususiyatlari xisoblanadi. Iroda katta kuch sifatida ijodni aktivlashtirib yuqori natijalarga erishtiradi.

**Tafakkur** - ijod kuchlaridan biri bo'lib, borliq xaqida fikrlashda, taxlil qilishda idrok, sezgi, xissiyotni badiiy asar yaratishga yo'naltiruvchi maqsadida vositadir. Badiiy asar inson faoliyatining boshqa soxalaridagi kabi tafakkurning maxsuli xisoblanadi. San'at asari faqat tasviriy vositalarni o'z ichiga olibgina qolmay, balki g'oyaviy - estetik mazmun, dunyoqarash, falsafiy tushunishni xam qamrab oladi. Rassomning tafakkuri ijodiy xarakteri bilan ajralib turadi, ijodiy xayol bilan birga xarakatlanadi.

**Ilxomlanish** - insonning mexnat jarayonidagi eng ko'tarinki ruxiy xolatdir. Rassomning ijodiy mexnatida ilxomlanish, aktiv ijod kuchlaridan biri sifatida axamiyatli rol o'ynaydi. Ilxomlanish - ijodiy, ma'naviy jismoniy jixatdan rassom uchun ijodiy vaziyat juda tez yechilgan bo'ladi. Bunda rassomning ijodiy xayoli, tafakkuri faol faoliyat ko'rsatadi.

**Badiiy talant** - shaxsiy psixologik xususiyatlardan biri bo'lib, badiiy ijodda eng kata kuch sifatida faol ishtirok etadi. Tug'ma talent insonning o'zida tug'ma anatomik va fiziologik tuzilishida o'ziga xoslik bilan mavjud bo'ladi. Badiiy talant, albatta, san'atga mexr - muxabbatni talab etadi va ijod qilish ishtiyoqi tinchlik bermaydi. Insonning badiiy iqtidorining eng yuksak darajali sifati bu geniallikdir.. Badiiy ijodda geniallik tushunchasi talantning izoxsiz yuqori darajada namoyon bo'lgan sifati bo'lib, u rassomni ma'lum tarixiy davr san'atidan yuqori turuvchi va dunyoviy axamiyatga ega bo'lgan san'at asarlari yaratishga olib keladi.

Ijod komponentlariga - bilim, dunyoqarash, badiiy uslub, estetik va badiiy did, maxorat kiritiladi. Bilim ijodning asosiy bosh komponenti xisoblanib, uni egallash orqali sezgi, estetik xis qilish, idrok, tafakkur, xotira, dunyoqarash, malaka, ijod uslubi, maxorat rivojlanib boradi. Rassom uchun bilim – bu xayotiy material, xayotni chuqur xar tomonlama

o'rganish bo'lib, usiz san'at asari yaratib bo'lmaydi. Rassom xar tomonlama xayotni yaxshi bilgan, bilimli, ziyoli bo'lmo'i lozim. Undan tashkari, u bilimini o'zining xissiyotlari orqali umumlashgan shaklda badiiy obrazda (orqali) aks ettirmogi lozim.

Dunyoqarash - obektiv borliqni badiiy xarakterda faoliyatning g'oyaviy yo'nalishiga mos xolda aniqlashdan iboratdir. Dunyoqarash fanlardan olingan bilimlar asosiga suyanadi.

Estetik va badiiy did xam, dunyoqarash xam badiiy uslub bo'lib, rassomning ma'lum aloxida g'oyaviy estetik ijodiy yo'nalishini ko'rsatadi. Estetik va badiiy did insonga tug'ilganda berilmaydi, balki qobiliyat kabi insonning o'sishi bilan rivojlanib boradi.

Maxorat - tasviriy san'atning zaruriy sharoitida namoyon bo'luvchi shaxsning badiiy qobiliyati, ruxiy xususiyati va sifatlaridir. Maxorat yuqori darajadagi bilim, tasviriy texnika, ko'nikma, malakani mukammal egallamoqdir.

Chiziq, shtrix, rangli va tusli dog' (surtma) soya - yorug', rang, chiziqli, xavo va rang perspektivalari kompozitsiyaning vositalaridir. Chiziqni esa tasviriy san'atning asosiy vositalaridan biri deyish mumkin. Undan uzoq muddatli, qisqa muddatli kompozitsiya eskizlarida foydalaniladi. Rassom kog'oz yuzasida narsa shaklini ochroq, to'qroq chiziqlar orqali ifodalashi mumkin.

Kompozitsiya amalda dastlab qalamtasvirda bajariladi. Keyingi bosqichda shtrix chiziqlarning qalinligi narsalarning soya, yorug' joylariga shakl berib, chuqurlik, masofani ifodalashga beradi. Rang va tus kompozitsiya tuzishda muxim rol o'ynaydi. Asarda plastik xajm, chiziqli, xavoyi, rangli perspektivalarning roli kattadir.

Kompozitsiya kursining asosiy vazifasi talabalarda ijodiy fikrlashni, san'atni idrok etishni va taxlil qilishni, xayotni kuzatish va obrazli tasavvur etish, badiiy estetik did va madaniyatni shakllantirish, ularni badiiy - pedagogik

faoliyatga tadbiiq qilishdir. Kompozitsiya amaliy xamda nazariy qismdan iborat.

Nazariy ma'ruzalar auditoriyadagi amaliy mashg'ulotlarni uy vazifalarini ongli ravishda bajarishni talab etadi. Kirish qismi kompozitsiyaning asosiy qonun - qoidalari, usul va vositalarini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'atning janr turlaridagi kompozitsiya o'ziga xos muammolarini, san'at asarida mavjud qonun talablarini ifodalaydi.

Kompozitsiya nazariyasidagi bilimlarni chuqur o'zlashtirishda, maxsus seminarlarning axamiyati katta. Bulardan tashqari talabalarning mavzular asosida referat yozib ma'ruzalar bilan chiqishlari, ularni muxokama qilish natija beradi. Amaliy qismidan asosiy maqsad esa talabalarda ijodiy qobiliyatning shakllanishiga, xayotni kuzatish, uni tasviriy vositalar bilan aks ettirish, bosqichma - bosqich eksizini oxirigacha etkazishdan iboratdir. Amaliy mashg'ulotlarda kompozitsiya eskizining mazmun g'oyasini maqsad va vazifalarini ongli ravishda idrok etish muximdir. Bajarilgan amaliy vazifalarning kamchilik va sabablarini muxokama qilib tushuntirib ijodiy fikrlashni shakllantirish lozim.

San'at muzeylari, badiiy ko'rgazma zallariga, ekskursiya yetuk rassomlar bilan uchrashuvlar tashkil etish, ular bilan suxbatlar o'tkazish, badiiy didni boyitadi. Berilgan mavzu bo'yicha eng «yaxshi kompozitsiya eskizi uchun» talabalar o'rtasida konkurs e'lon qilib yaxshi eskizlardan ko'rgazmalar tashkil qilish, g'oliblarni rag'batlantirish ijodiy samara beradi. Bu yuqorida sanab o'tilgan tasviriy san'at turlarining xar biri ijodkor tanlagan voqelikni mazmunan o'ziga xos vositalarda, badiiy tilda tasvirlaydi. Bu san'at turlari ichida eng keng tarqalgani nafis tasvir san'atidir.

Nafis tasviriy san'at tasviriy san'atning bir turidir. Rassom bo'yoqlar va maxsus usullar yordamida jism xajmini tasvirlaydi. Nafis tasviriy san'at beshta elementdan iborat. Bu elementlar buyum shaklini, rangini, tushayotgan yorug'ni,

yasalgan materialini, tasvirlanayotgan predmetni qanday sharoitda va muxitda ekanini tasvirlashda namoyon bo'ladi.

### **Birinchi bob yuzasidan qisqacha xulosalar**

Kompozitsiya kursining asosiy vazifasi talabalarda ijodiy fikrlashni, san'atni idrok etishni va taxlil qilishni, xayotni kuzatish va obrazli tasavvur etish, badiiy estetik did va madaniyatni shakllantirish, ularni badiiy - pedagogik faoliyatga tadbiiq qilishdir. Kompozitsiya amaliy xamda nazariy qismdan iborat.

Nazariy ma'ruzalar auditoriyadagi amaliy mashg'ulotlarni uy vazifalarini ongli ravishda bajarishni talab etadi. Kirish qismi kompozitsiyaning asosiy qonun - qoidalari, usul va vositalarini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'atning janr turlaridagi kompozitsiya o'ziga xos muammolarini, san'at asarida mavjud qonun talablarini ifodalaydi.

## **II BOB. TASVIRIY SAN'AT JANRLARI VA ULARDA KOMPOZITSIYA TUSHUNCHASI.**

### ***2.1 INTERYER, MANZARA, PORTRETD A KOMPOZITSIYA.***

Tasviriy san'atda bir necha janrlar mavjud: tarixiy, jang manzaralarini aks ettiruvchi janr, maishiy janr, portret, manzara, natyurmortdir. Xar qanday san'at asarining negizini kompozitsiya tashkil etadi. Natyurmort tuzish bu ijodiy jarayon. Unda rassomning didi, layoqati, kompozitsion madaniyati bilim saviyasi namoyon bo'ladi.

Natyurmort (lug'aviy'ma'nosi - jonsiz tabiat) xaqida gapirganda, odatda, sabzavot - mevalar, gullar, qotirilgan ilvasinlar (mulyaj), uy ro'zg'or buyumlarning tasviri ko'zda tutiladi. Lekin natyurmortda jonsiz tabiat tasvirlanganiga qaramay, matoda jonli xayot nafasini sezamiz. Natyurmort

kompozitsiyasining ma'noli va ta'sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi bir - biriga munosib va mos narsalar tabiiy bog'lanishda qo'yilishi kerak. Ko'yilgan natyurmort kishida qiziqish va rasm chizishga xavas xissini uyg'otadigan bo'lishi va albatta kompozitsiya talablariga javob beradigan bo'lishi lozim. Natyurmort tarkibiga kiradigan narsalar estetik ta'sirchanlik talablariga javob beradigan, shakli, xajmi, materiali, sirti (fakturasi), rangi va och - to'qligi (tus) bilan bir - biridan farq qilishi kerak.

Masalan, katta chelak yoniga qo'yilgan gugurt qutichasini ko'z ilg'amaydi chunki ular o'rtasida uzviy bog'lanish sezilmaydi. Tanlab olingan narsalarning predmet tekisligida bir - biriga nisbatan qanday joylashtirilishi natyurmortning qiziqarli chiqishiga ta'sir etadi. Sharden, Surbaran, Kalf, Snayders K.Korovin, I.Mashkov, P.Konchalovskiy va boshqa natyurmort nafis rassomlar asarlarida xayotiy xaqiqatni, matoda jonlangan tabiatni ko'ramiz.

Shardenning «Piyozli natyurmorti» da stol ustidagi ko'k piyozning cho'zik shakli surat kompozitsiyasining cho'zik bo'lishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Shaki jixatdan unga zid narsalar izlab, Sharden sharsimon olmalarni, ovalsimon tuxumlarni va ro'zg'orda zarur bo'lgan buyumlarni - mis, qog'oz, sopol va shisha idishlarni tanlagan. Rassom ataylab shakl o'lchami, materiali bir - biridan farq qiladigan narsalar tanlashda tabiatning o'ziga xos rang- barang va turli - tumanligini qiyos qilgan. Bir qarashda bu natyurmort mazmun jaxatidan juda sodda ko'rinadi. Rassom turmushda zarur narsalardan bir nechasini olgan xolos. Mazmunan bir - biriga monand narsalardan tanlab olib ulardan shunday bir yaxlit gurux tashkil qilish kerakki, u kishida qiziqish uyg'otsin, diqqatini o'ziga tortib, albatta, uning tasvirini yaratish ishtiyoqini xosil qilsin. Sharden natyurmort tuzish tanlagan narsalar - mis kuzon, sopol chumich, yashil ragli shisha idish, ko'k piyoz boshlari, ikkita olma va ikkita tuxumdan iborat. Bular ulkan mo'yqalam soxibining yuksak talanti, tabiatning beqiyos boyligini ko'ra olishi va to'g'ri idrok qilishining natijasidir.

Natyurmortning kompozitsion muayyanligi uning tabiiyligidir. Shuning uchun natyurmort tuzish, uni o'rnatish, vaqtida yaxlitlikka e'tibor berib, nixoyasiga etkazishga xarakat qilish lozim. Buning uchun esa klassik namunalarni ko'plab taxlil qilib, u yoki bu asar insonga nima uchun shunchalik ta'sir etadi, zavqini keltiradi degan savollarga javob izlash foydalidir. Natyurmortning manzara yoki interyerga nisbatan afzalligi yana shundaki, uni qo'yib olgandan keyin bir necha kun joyidan qo'zg'atmasdan xar - xil qarash nuqtalaridan qayta - qayta tasvirlash mumkin. Natyurmortning atrofimizdagi tabiatdan farqi shundaki, uni inson ijod qilish yoki o'rganish maqsadida o'zi yana tuzadi, tafakkuri bilan barpo etadi. O'quv natyurmortning kompozitsiyasi bir tomondan estetik talablariga, ikkinchi tomondan ta'limning didaktik talablariga javob berishi kerak.

Natyurmort qo'yilmasi puxta va uzoq vaqt o'ylab, muloxaza qilib tashkil etiladi. Unga ko'p narsa kiritilmasa-da, narsalarning shakl va ranglari xar - xil bo'lishiga e'tibor berish kerak. Silliqlik yaltiroq sirtli idishni, sirti jilvasiz narsa bilan, qirrali buyumni dumaloq shakl bilan yonma - yon qo'yilgan, ularni taqqoslash va sinchiklab o'rganish uchun imkoniyat tug'iladi. Natyurmortning asosiy talablaridan biri o'lcham, rang va ton jixatidan ajralib turishi, surat tekisligining markaziga yaqin joyga qo'ya bilishdir. Bu surat mazmunini ochishda, so'zboshlovchi vazifasini o'taydi, kompozitsiyaning markazini bo'rttirib ko'rsatadi. Ko'pincha rassomlar asosiy predmetni ataylab markazdan sal siljitib qo'yadilar-da, muvozanatni saqlash uchun qarama - qarshi tomonda rang va ochunga zid bo'lgan predmet oladilar.

Atoqli natyurmort nafislar Sezan, Sharden, Xrutsskiylar bu usuldan unumli foydalanganlar. Natyurmort janrida O'zbekistonlik rassomlardan Ufimsev, S.Kolibanov, YU.Elizarov, R.Axmedov kabilar o'z asarlarida tabiatning beqiyos boyligini milliy ruxda jozibali tarannum etdilar.

O'quv natyurmortining muxim tomonlaridan yana biri shundaki tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy joylashishidir. Qo'yilmaga kiradigan

narsalardan kattasi orqaroqda, maydalari oldinroqda, biri ikkinchisini va asosiy narsani bir oz berkitib turadigan qilib qo'yiladi. Natyurmortdagi narsalarni mazmunan bir - biriga bog'lash maqsadida unga cho'ziqroq shakldagi narsa kiritiladi. Surat tekisligining asosidan kompozitsiya markaziga qaratib qo'yilgan pichoq, qoshiq, qog'oz o'rami, mo'yqalam va xokazolar surat mazmunini ochishga yordam beradigan «kalit» bo'lib, tomoshabin nigoxini kompozitsiya markaziga yo'naltiradi. Natyurmortning fazoviy xolatini yaqqolroq tasvirlash uchun birinchi planda unga katta bo'lmagan, ammo yorqin narsa qo'yiladi.

Natyurmortning ufq chizig'iga nisbatan qanday joylashishi xam katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, ko'z balandligidan pastroqda qo'yilgan natyurmort narsa tekisligida to'la – to'kis ko'rinib turadi, narsalarning asoslari, ularning uzaro joylashishi yaqqol ko'rinadi va tasvirlashda qulay bo'ladi. Narsalarning shaklini va fazoviy joylashuvini to'laroq ochib berish uchun yorug'lik nurlari old tomonidan yoki yondan tushadigan bo'lishi kerak. Tabiiy yorug'likning kuchi yetarli bo'lmasa, natyurmortning yon tomoniga sun'iy yoritgich qo'yiladi. Shunda oldingi i arealarda yorug' soya kontrasti keskin bo'lib, ularning xajmdorligi bo'rtib ko'zga tashlanadi, sirtlar yaqqol ko'rinadi. Ikkinchi plandagi narsalarda esa ziddiyat. kamroq seziladi. Nurlarning kuchi kamayib borgan sari uchinchi plandagi narsalardagi qarama - qarshilik yana xam mayinlashadi, ularning chegaralari fonning to'q joylari bilan umumlashib ko'rinadi. Lekin natyurmort bo'yoqlar tasvirlanadigan bo'lsa, uni deraza yaqiniga kunduzgi tabiiy nurlar ostida va biroz yonboshdan yorug'lik tushadigan qilib qo'yilgani ma'qul. Vazifa natyurmortdagi narsalarning asl (lokal) ranglarini aniqlashdan iborat bo'lganda, u deraza ro'parasidagi devor yoniga qo'yiladi. Bunda natyurmortga nurlar old tomondan tushadi, soya va reflekslar unchalik ko'p bo'lmaydi va predmetlarning o'z rangi yaqqol, ochiq - oydin ko'rinadi. Avvaliga fon uchun tanlanadigan gazlamalar yaxlit, sidirg'a va nursizroq bo'lgani ma'qul, chunki olachipor yorqin

rangli gazlama ko'zga aniq tashlanib, natyurmortning asosiy buyumlarini ko'rishga xalaqit beradi. Shuni xam xisobga olish kerakki och fonda qoramtir narsalar, to'q fonda esa, aksincha, oq narsalar ravshan ko'rinadi. Keyinchalik natyurmortga kompozitsiyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida burmali matolar (drapiroovka) kiritiladi. Orqa fonga va predmet stoliga solinadigan gazlamaning (chit, surup, shoyi, baxmal, movut) xarakteriga mos xolda mayda va yirik burmalar qilib ko'yish mumkin. Gazlama devordagi bitta nuqtaga biriktirib ko'yilsa u pastga erkin osilib tushadi va tabiiy shakldagi burma xosil qiladi.

Aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, natyurmort postanovkasini qo'yish: jiddiy va mas'uliyatli ishdir. Yaxshi qo'yilgan natyurmortda ortiqcha tasodifiy narsalar bo'lmaydi, uni old yoki yon tomonidagi qarash nuqtalaridan kuzatilganda, mazmunan yaxlit gurux bo'lib ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

O'quv natyurmortdan ijodiy natyurmortning farqi shundaki, u xayotga yaqin bo'ladi xamda ko'p ma'noni anglatadi. Xar bir rassom o'zini natyurmort janrida sinab ko'radi. Natyurmort V.I.Ufimsev (1899-1964) ijodida katta rol o'ynaydi. U ko'plab tematik natyurmortlar ishlagan. Xar bir natyurmort mavzusini oldindan o'ylab qo'ygan. U xarbiy mavzuda xam natyurmort seriyasini

yaratgan. «Garmon», «Qurol», «Xabar» shular jumlasidandir. V.N.Kashina (1889-1974) da natyurmortlarida quyoshli o'lka, saxiy ona yer, tabiat in'omlarini tarannum etgan.

60 - 80 yillarda ijod qilgan V.Fadeev, S.Ablullaev. V. Lisovlar yaratgan natyurmort asarlarida ko'proq tabiat boyligi, uy – ro'zg'or buyumlari, mevalar, gullar dekorativ matolar fonida tasvirlangan. Ko'plari o'quv postanovkani eslatadi.

Portret janrining ustasi Raxim Axmedov ijodida natyurmort xam asosiy o'rinni egallaydi. Uning ochiq xavoda yorug' fonda ishlagan natyurmortlari

kishiga kayfiyat, quvonch baxsh etadi. Chunki ko'zadagi atirgullar fonida xandalak, so'yilgan qovun, tarvuz, uzum, nok, shaftolilarsiz natyurmortni tasavvur etib bo'lmaydi. Oq dasturxonda sharqona terilgan mevalarda rang koloriti uyg'unlashib ketadi. Shu tarzda natyurmort rassom uchun ifoda obektiga aylanadi.

Ko'p yillar davomida natyurmort rassom E.Melnikov uchun yagona ijod, ifoda vositasi bo'lib keldi. Xuddi shu janrda estetik badiiy print shakllandi. Rassomning «Shamchirog'» natyurmorti, «Rassom usta xonasida» asari chuqur ma'noli falsafiy natyurmortlardir. «Garmon» natyurmortida jangchining kundalik «poxod» anjomlari-avtomat, maxorkali xalta, gazeta, mis kosacha, buyum to'rva va jangchining xamroxi - garmon tasvirlangan. Bu natyurmort o'zida inson ishtirokini bildirib eslatib turadi. G'.Abduraxmonovning «Samovarli natyurmort»da esa mavzu kompozitsiya tuzilishiga monand olingan yorug' milliy so'zana foniga qo'yilgan katta xajmdagi samovar va stol ustidagi laganda so'yilgan qovun- tarvuzlar, non, olma - anorlar xamda ularning tekislikda kompozitsiya jixatidan badiiy ifodali joylashishi tomoshabinni befarq qoldirmaydi. Mexmondo'st o'zbek orqali o'z aksini topgan.

Shunday qilib, natyurmort tuzish uchun quyidagi omillar zarur:

a) mavzu tanlash;

b) natyurmort mavzusiga mos keladigan jixozlar, predmetlar, gazlamalar topish;

v) narsalarning shakli, tuzilishi, tusi va ranglarini xisobga olib joylashtirish;

g) predmetlarning xajmdorligini yaqqol ko'rinadigan tarzda yoritish.

Bularning xammasi birgalikda natyurmort kompozitsiyasi (qo'yilmasi) deb yuritiladi.

Tasviriy san'atda interyerni tasvirlash qiziqarli mavzulardan biridir. Tarixiy, maishiy va zamonaviy mavzudagi badiiy asarlarda interyer foharikasida xam ishlatilishi mumkin. Interyer xolati orqali xonadon soxibining didi xaqida yoki zavod sexining jixozlanishiga qarab ilmiy taraqqiyot xolati xaqida xulosa chiqarishimiz mumkin. Uyning eshik, derazalarining shakli, xajmi, devor shift, polning bezagi va uy jixozlarining bezagi tasviri orqali uning qaysi davrga mansubligini bilib olishimiz mumkin. Teatrdagi interyer xar tomonlama ichki jixozlari bilan estetik jixatdan zavod sexidan farq qiladi. Zavodning metall quyish sexini ko'z oldimizga keltiraylik. Katta sex poliga yotkizilgan katta xajmdagi plitalar, relsda xarakat qilayotgan og'ir kranlar, kumushsimon tutun orasidan sexga tushayotgan sun'iy yorug' yonidagi qozondan ko'rinayotgan qizil lava va ko'k tutun kabi xolatlar o'zining xayotiy go'zalligi bilan rassomni beixtiyor o'ziga tortadi.

Interyer mavzusida xayotning turli bosqichlarida ko'plab rassomlar ijod qilishgan. Ularning asarlari orqali o'sha davrdagi qishloq uylari, saroylarning ichki interyerlari orqali qanday xolatda bo'lganini bilamiz. Ko'plab shunday realistik san'at asarlarida yozuvchi olimlarning, jamoat arboblarning xonalari tasvirlangan. Rassomlardan A.Venetsianovning, «A.Nekrasov portreti» dagi interyer, I.Kramskoyning «Arka tagidagi imxona», I.Repinnining «L.Tolstoy ish ustida» ishlarini aytib o'tishimiz mumkin.

I. Repinning «Kutmagan edilar» kartinasidagi interyerda XIX asrning 80-yillarda ilg'or ziyolilarning o'ziga xos turmush tarzi ko'rsatilgan. Natyurmortga nisbatan interyerda chiziq va xavo perspektivasining xamma qonunlariga rioya qilinadi. Xonaning ichki ko'rinishi natyurmortga nisbatan xar xil balandlik va masofada joylashgan ko'p narsalar gorizonta pol va vertikal devor tekisligida joylashishi bilan farq qiladi (mebel, deraza, kartina).

Interyer kompozitsiyasiga xonaning u erdagi narsalarning konstruksiyasi perspektiva qisqarishi ta'sir ko'rsatadi, shu bilan bir qatorda soya, yorug' sharoitlariga qarab tus va «kontrast» rang yechimi ustida mashg'ulot bajariladi.

Interyerda odam figurasi ishtirokisiz xam mavzuni chuqur ifoda etish mumkin. Misol uchun «Maktab kutubxonasi», «Sport zali» kabi kompozitsiya mavzulari bo'lishi mumkin. Undan tashkari «Rassom ustaxonasi», «Buvim xujrasi) «Mashina sozlovchi ustaxona» kabi mavzular yakunlovchi vazifa sifatida berilishi mumkin. Xar ikkalasida xam dastlab interyerdagi mavjud narsalarni sinchiklab o'rganib, xomaki chizgi lavxalar bajarib, interyer kompozitsiyasi tuzish maqsadga muvofiqdir.

**Manzara** - tasviriy san'atning qadimiy janrlaridan bo'lib, tarixiy, maishiy asarlarda xam vosita- fon sifatida muxim rol o'ynaydi. Qadimiy xitoy san'atida rassomlar tabiatni aks ettiruvchi asarlar yaratganlar.

Evropada manzara janri tarixi XVI - XVII asrlarda taraqqiy etdi. Gollandiya manzarachi rassomlari tabiatni xaqqoniy tasvirlashda katta muvaffaqiyatlarga erishganlar.

Rossiyada manzara janrining rivojlanishi XVIII asrga to'g'ri keladi. Moskva, Peterburg arxitektura yodgorliklari F.E.Alekseyev tomonidan maxorat bilan tasvirlangan. Manzara san'ati tashqi dunyoning go'zalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta'sir etuvchi kuchga ega. Shuning uchun rassom tabiat olamining eng nozik, tipik xolatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo'lgan estetik munosabatini bildiradi.

Manzara asarida inson shaxsi, aql-zakovati, ichki tuyg'ularini tasvir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. I.Levitanning «Oltin kuz», «Abadiy sokinlik uzra», I.Shishkinning «O'rmon yiroqliklari V.Meshkovning «Ural xaqida o'ylar» kabilar shunday asarlardandir.

Tasviriy san'atdagi manzara janriga oid asarlar insonda tabiyatga muxabbat va go'zallik fazilatlarini shakllantiradi. Rassomlar tarixiy va maishiy mavzudagi asarlarda bevosita manzaraga xam murojaat qiladilar, etyud, eskizlar yozadilar. Bunda manzara kartinada qo'shimcha fon vazifasini o'taydi. V.Vasnetsovning «Alyonushka» asari bunga misol bo'la oladi. Tabiiy

go'zalligini, zamonasiga xos yangilik, o'zgarishlarni K.Yuon, YU.Pimeyev, Nisskiy kabi rassomlar xam o'z asarlarida tasvirlab berganlar.

Urushdan keyingi yillarda Respublikamizda muntazam tashkil etilgan xorijiy davlatlarning badiiy ko'rgazmalari, O'zbekiston tasviriy san'atiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tabiatni yangicha xis etish, yangicha talqin qilish xissiyoti paydo bo'la boshladi. O'zbekiston rassomlarining tabiat manzaralariga yana xam ishtiyoqi ortdi.

XX asrning 50-yillarida o'zbek manzara janrida O'rol Tansiqboyev karvonboshi bo'ldi. Qishloq xo'jalik mavzusiga oid asarlar yarata boshladi. 1950- yilda «O'zbekistonda baxor», «Paxtani sug'orish» asarini yaratdi. Tongda esayotgan mayin shabada va shildirab oqayotgan suv, salqin tabiatning uyg'onishi tomoshabinda quvonchli xissiyotni uyg'otuvchi ta'sirchan vositadir. Xayotning obyektiv qonunlari va inqilobiy rivojlanishining epik xolatlari yuzaga kelishi «Ona o'lka» asarida (1951 y.) o'z aksini topdi. Kompozitsiya echimini panorama usulida echish, rassom ijodining xarakterli nuqtalaridan bo'lib qoldi. Ayniqsa xolat cho'lni ochishga bag'ishlangan «Taxyatosh» va «Issiq ko'l» nomli asarlarida namoyon bo'ladi. Manzara kompozitsiyasini panorama usulida tasvirlash rassomga xos xususiyatlardan biridir. «Qayroqqum GES tongi» (1957 y) eng yaxshi industrial manzara asarlaridan biri deb tan olingan. (B.V.Veymarn, O'.Tansiqboyev Moskva Izd. Iskusstva 1958 y). Asar 1957- yili Moskvada sobiq, ittifoq ko'rgazmasida va Bryuseldagi ko'rgazmada namoyish etilib kumush medal bilan taqdirlangan. Moskvadagi Sharq xalqlari Davlat san'at muzeyida saqlanmoqda. Qarshimizda katta keng gidroelektrostansiyaning qurilish panoramasi, orqasida bryuza rangli «Qayroqqum» dengizi istalgan kompozitsiya markazi xam gidrostansiya qurilishi namoyon bo'ladi. Tepalikdagi buldozer, to'g'on ustidagi kranlar, oldingi plandagi qumli do'ngliklar, to'g'on orqasidagi cho'l manzarasi, cho'lda hosil bo'layotgan mo'jizani eslatadi. Eng asosiysi manzara asarida

qayroqqum xaqiqatni poetik talqin etish mahorat bilan ko'rsatib berilgan. Yorqin dekorativ iliq, sovuq tuslardagi kontrast pushti, tilla, ko'kbiryuza ranglarda go'zal tabiatning bepoyon kengligidagi qaynoq xayot o'z aksini topgan. Dengiz satxidagi quyosh nurlarida yarqirab turgan o'ynoqi baliqlar rassom tomonidan juda katta maxorat bilan tasvirlab berilgan.

O'.Tansiqboyev Respublika industriyasini rivojlanishiga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratdi. «Olmaliqda» (1958 i.), «Sement zavodi» (1960 i.), «Chorvoq GES qurilishida» (1969-1970 i.) asarlari shular jumlasidandir.

O'ral Tansiqboyev diapazoni keng rassom. U tabiatni aks ettiribgina qolmay, balki undagi inson qo'li, aql-zakovati orqali bo'layotgan o'zgarishlarni xam maxorat bilan tasvirlaydi. U Sobiq SSSR Badiiy Akademiyasining muxbir a'zosi. O'zbek tabiat manzara san'atining kuychisi O'ral Tansiqboyevning ko'plab asarlari Moskvadagi Tretyakov galereyasi, O'zbekiston Davlat san'at muzeylarida saqlanmoqda.

40-50 yillardagi o'zbek manzara san'atining yana bir vakili Nikolay Qoraxondir.

Dastlabki ijodida qishloq xayoti, keng dalalar, yo'llar, mehnatkash xalq xayoti asosiy mavzu bo'lsa, keyinchalik yirik inshootlar, industriya manzaralaridan iborat bo'ldi. Uni xalqning farovon xayoti, mexnat jarayoni ko'proq qiziqtirdi. «Zavod trubalari» 1929 y, «Ishga ketayaptilar» (1934 y.) shular jumlasidandir.

50-yillarga kelib rassom ijodida tog' mavzusi asosiy o'rin egalladi. Ko'proq baxor, kuz, tabiatning ertalabki, kechqurun paytlarini dekorativ ko'k, yashil, sariq, qizil ranglarda jozibali qilib tasvirladi. Togning jo'shqin oxanglarini «Nanayga yo'l» (1954 y.), «Amu Daryoda» (1957 y.), «Elektrostansiya» (1957 y.) asarlarida tasvirlab berdi.

1958-yillarga kelib rassom ijodining yangi qirralari ochila boshladi. Buni «Gullayotgan vodiy» asari misolida ko'rish mumkin. Baxor, tabiat bayram libosida. Binafsha rangli tog' fonida gullab turgan oq, pushti, sariq

ranglardagi daraxtlar, bepoyon dalalarga gilam yozgan yashil maysalar, go'zal tabiatga chiroy ochib, insonga qanchadan qancha shodlik va quvonch baxsh etadi. Asarda rang koloriti echimi asosiy rol o'ynaydi. Esayotgan mayin shabada tizma tog'lar, sariq, tilla rangdagi bug'doyzorlar bunga misol bo'la oladi. Sariq mayin tilla kaloritda yozilgan «Oltin kuz» (1962 y), «Tog'da kuz» (1959 y), «Oltin simfoniya» (1962 y), «Toshkentda kuz» (1967y) asarlarida Nikolay Qoraxon odil fikrli yetuk manzarachi rassom sifatida namoyon bo'ladi.

Rangli beqasamga o'ralgan tabiat qo'yniga berkingan tog' yonbag'ridan qishloq, quyosh nurida jilvalanayotgan daraxtlar orasidagi burma yo'llardagi odamlar qiyofasi, ertak manzarasini eslatadi. O'sha davrdagi keksa rassomlar O. Tatevosyan, M.Novikov, A.Volkovlar manzara janrida ijod qilib, O'zbekiston tabiati va xayotda sodir bo'layotgan yangiliklarni aks ettirdilar. Z. Kovalevskaya, Z.Inog'amov, N.Qo'ziboyev, K.Bogaduxov, G.Ulko, M.Esin, N.Shurigin kabi rassomlar O'zbekiston tabiatini aks ettiruvchi lirik manzara asarlarini yaratdilar. A.Rozikovning «O'zbek xovlisi» (1947y), «Sherdor xovlisida» (1950y) «Samarqandda baxor» (1958y) kabi asarlari P.Benkov metodikasini yaxshi egallaganini ko'ramiz.

Rashid Timurov go'zal Samarqandni kuylagan yetakchi rassomlar qatoriga kiradi. U shu shaxarda yashab, ko'p asrlik qadimiy yodgorliklarni, gullagan bog'larni, xayotni sevib, tabiat go'zalligidan ilxomlanib ijod qildi. «Samarqand bog'lari» (1946 y. GMI), «Bibi-xonim maydoni, baxor» asarlarida sokinlik, xalqni bayramlarini tarannum etadi.

Samarqanddagi «Shoxi-Zinda», «Xazrat Xizir», «Ulug'bek madrasasi», «Afrosiyob» yodgorliklarini chiroyli tasvirlagan Rashid Timurov manzarachi rassom sifatida tabiatni yaxshi xis etardi. U «Samarkand»(1958y GMI) asarida ko'rish nuqtasini juda to'g'ri topgan, panorama ko'rinishida tasvirdan

yodgorliklar chuqur falsafiy fikrlashga chorlaydi. Xar bir rassom, xar bir avlod o'z davrida manzara janrida xam o'zini sinab ko'radi, lekin hammalari manzarani yaxshi xis eta olmaydi. Manzarachi rassom bo'la olmaydi. Tabiatni vujudi bilan xis etib sevgan malakali rassomgina o'z xis-tuyg'ularini manzara tasvirida ifodalab beradi. Ko'plab kekxa avlod rassomlari bizga go'zal manzara asarlarini yaratib meros qoldirganlar. Ular yaratgan san'at asarlarining mazmunini, kompozitsiya tuzilishini ularning ish tajribalarini yoshlarga o'rgatib, ko'rgazmali vosita sifatida foydalanish o'rirlidir. 70-80 yillarda G.Abduraxmonov, F.Toxirov, R.Choriev, K.Bogoduxov, M.Esin, Pudovkin kabi rassomlar manzara janrida samarali ijod qildilar. Xozirgi vaqtda ko'plab izlanuvchi iqtidorli rassomlar, A.nuritdinov, O. Qozoqov, 3. Islomshikov, A, Mo'minov, A, Mirsoatov kabilar mustakil o'zbekistonning go'zal tabiatini madx etuvchi maftunkor manzaralarni yaratib kelmoqdalar.

Manzaraning bir necha turlari mavjud: shaxar (me'morchilik),qishloq. (tog') manzara, sanoat (zavod, fabrika, inshoat qurilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama (ko'rinishida) manzaralari shular jumlasidandir. Bularning har biri negizida ifodalovchi mazmun, g'oya yotadi.

SHaxar manzarasida shaxar hayoti bilan bog'liq (me'morchilik) transpor vositalari, odamlar, oromgox bog'lar xamda yer osti o'tish joylari kompozitsiya tasviri uchun misol bo'la oladi.

qishloq manzarasi, bepoyon kenglik, tog' manzarasi, yaylovlar, qoya tosh, o'simliklar, vodiydagi jilvakor suvlar tasviri kompozitsiya negizini tashki etadi. Sanoat manzarasi katta zavod xovlisi, suv ombori, ko'prik, metro qurilishi, texnika qurilish vositalari bilan bog'langan.

Lirik manzarada tabiatni «Erta tong», «Baxor» kabi mavzudagi tabiatning nozik, sokin go'zalligini, uning uyg'onish xolatini aks ettiruvchi, insonga olam – olam quvonch baxsh etuvchi asarni kuz oldimizga keltiramiz. Manzaraning kompozitsiya vositalari (belgilari): joyni tanlash, ko'rish

nuqtasi, ko'rish. Chizig'i, fazoviy masofa, format, perspektiva, ritm, kolorit, yorug'lik, refleks, kompozitsiya markazi shular jumlasidandir.

Bu janrda kompozitsiya yaratish uchun, qalamtasvir, rangtasvir sohalarida mukammal bilimga ega bo'lish kerak. Naturadan dastlabki chizilgan chizgi, rangli etyudlar manzara kompozitsiyasini tuzishda asosiy mavzu bo'lishi mumkin. Qishloq manzarasini kompozitsiyasini tasvirlashda avvalo quyoshli, bulutli kunlar, peshin, oqshom kabi xolatlarning xarakterli xususiyatlarini sinchiklab kuzatish lozim.

Xajmni aniqlab, ufk chizigi, ko'rish nuqtasini belgilab olish kerak. So'ngra xavo va yerning tekislik nisbatlarni belgilab, oldingi, keyingi, orqa planni va narsalar masshtabini topish darkor. Kompozitsiyaning bir necha variantlarini sangina, ko'mir kabi yumshoq materiallarda bajarish tavsiya etiladi. Bajarilgan xomaki eskiz variantini rangda tasvirlash asar koloritini aniqlashga yordam beradi. Sifatli bajarilgan eskiz asosida manzara kompozitsiyaning yakuniy nusxasini amalda bajarish kerak. Qog'oz, karton, xolet, akvarel, guash, moybo'yoq orqali amalga oshiriladi.

Bo'lajak rassom uchun xayotni kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchi va etyudlarni bajarish mashqlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Manzara janridagi asarlar inson uchun ma'naviy ozuqa beradi ruxlantiradi, shodlik va quvonch bag'ishlaydi.

**Portret** - inson obrazini tasviriy san'atda yaratishnish janri xisoblanadi. Ma'lumki, xar bir davrning usta rassomlari bo'lib, portret asarlarida zamondoshlarining go'zal qiyofasini, obrazlarini yaratib, keyingi avlodlarga meros qilib qoldirishgan. Uyg'onish davrining buyuk namoyandasi Lenardo da Vinchining «Avtoportret», «Djakonda» asari, Velaskesning «Papa Inokentiy X» portreti shular jumlasidandir. XVII asrda Evropada portret janrining buyuk darg'alari yetishib chiqdi. Bunga Velaskezning shox asari «Papa Innokentiy X» portretini misol keltirish mumkin.

«Innokentiy X» - ulug', zabardast, ifodali shaxs obrazini benuqson,

professional maxorat bilan yaratgan. Portretida ichki psixologik xolat, rang KOLORIT faktura, yuz qiyofasi tasviriga katta ahamiyat berilgan. Portret tomoshabin qalbidan chuqur o'rin olgan. Shuning uchun Velaskezning yaratgan bu buyuk asari durdona sifatida Yevropa muzeylarida saqlanib kelmoqda. Xar bir rassomning o'z ichki dunyosi, dunyoqarashi mavjud. Ijodkor qanchalik ma'naviy boy bo'lsa, ijod ifodasi yuqori saviyada bo'ladi.

Yevropa muzeylarida Golbeyn, Rembrant, Titsian, Rafael, Baticelli kabi zabardast tasviriy san'at ustalarining yaratgan noyob asarlari saqlanmoqda. Xamma ulug'lar kabi Rembrant xam ijodida mexnatkash, serunum edi. Faqat avtoportretlarining o'zi 60 tadan ortiq edi. U odam yuz qiyofasining tuzilishi, tasvir vositasi, soya, yorug'larning joylashishi psixologik xolatni chuqur o'rganishni asosiy vazifa deb bilardi.

Rembrantning avtoportretlari ichida eng shox asarga aylanganlaridan biri boshiga oq boylagich bog'lagan avtoportretidir (Parijdagi Luvr muzeyida saqlanmoqda). Quvonchli kunlar uchun ko'p zaxmat chekkan shaxs, tasvirda aks etgan. Rembrant tasviriy san'atda eng buyuk psixolog portretchi rassomlardan xisoblanadi. U insonning nafaqat xarakteri balki ichki dunyosini, kechinmalarini, ko'z yoshlarini, chuqur psixologik holatini maxorat bilan tasvirlagan san'at ustalaridan hisoblanadi. Gollandiyalik rassom Rembrant kabi boshqa ko'pgina Yevropa rassomlari ham ajoyib portretlarni yaratib nom qozondi. Bu portretlar maxoratli ishlanganligi va maftunkorligi bilan insonni o'ziga rom qilib kelmoqda.

XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan buyuk rus rassomlari O.Kiprenskiy, V.Tropinin, A.Venesianovlar rus portret san'atining asoschilari hisoblanadilar. Ular XVIII asr portretchilik an'anasini davom ettirib, insonni tasvirlashga yana ham zo'r e'tibor bilan qaradilar, inson psixologiyasiga katta ahamiyat berdilar va rassomchilik maxoratlarini oshirdilar. -----

O.A.Kiprenskiyning portret san'atidagi muvaffaqiyati shundaki, rassom o'z zamondoshlari portretida dastavval insonning go'zal ma'naviy dunyosini,

qadr-qiymatini, uning orzu-o'ylarini, kechinmalarini tasvirladi. U qator asarlarni, shu jumladan ijodning cho'qqisi bo'lgan A.S.Pushkin(1827y) portretini yaratdi. Taniqli shoir siymosi bu portretda har jihatdan chuqur va mukammal ochib berilgan. Asarda shoirning tashqi qiyofasi bilan birga, undagi ruxiy ko'tarinkilik, bitmas-tuganmas ijodiy ilhom soxibi ekanligi moxirona tasvirlangan. Uning zamondoshlaridan biri V.Tropinin bizgacha asosan <<Pushkin>>, <<Gitarachi>>, <<Bagration>> portretlari muallifi sifatida tanilgan. Uning 1823-yilda yaratilgan <<To'quvchi qiz>> portreti istarasi issiq, yoqimli shaxlo ko'z qiz qiyofasini aks ettirgan edi. Ularning izdoshlaridan biri A.Venetsianovdir. U birinchi bo'lib san'atga dexqon obrazini olib kirdi va birinchi bo'lib tabiatning poetik obrazini yaratdi. 20-yillarda yaratgan <<Yoz>>, <<Ekinzorda>> asarlarida go'zal tabiat va inson obrazini, dexqonlarning mexnat jarayonini ifodalab, uyg'unlashtirib bergan. U <<Zaxarka>> portretida mexnatkash bolaning ichki dunyosini ochib bergan. XIX asrdarealistik portret sohasida N.Kramskoy, I.Repin, V.Vasnesov, V.Serov kabi ulug' rus rassomlari ijod qilganlar. N.Kramskoyning N.Nekrasov, P.Tertyakov, L.Tolstoy, I.Repinin Stasov, Musorgskiy portretlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek portret san'ati yuksalib rivojlandi. Portret soxasida Lutfulla Abdullaev, Abdulxaq Abdullaev, Raxim Axmedov, Malik Nabievlar samarali ijod qildilar. Lutfulla Abdullaevning «Mulla to'ychi Toshmuxamedov», <<Yo'ldosh Oxunboboyev>> portretlari realistik an'analarda moxirona tasvirlangan.

Abdulxaq Abdullaev birinchi o'zbek portretchi rassomlardan biri bo'lib, portret soxasida salmoqli ijod qildi. U o'z zamondoshlari, ziyolilarni, olimlarni adabiyot va san'at namoyondalarining portret gallereyasini yaratib katta muvafaqqiyatlarga erishdi. «Abror Xidoyatov Otello rovida», yozuvchi <<Oybek>> portreti muallifining shox asarlaridan bo'lib, Otelloning o'ychan boqishi, gavda xarakati portretga romantik ko'tarinkilik ruxini baxsh etgan, unda yuz ifodasi, psixologik xolati moxirona tasvirlangan. Oybek portretida shoir

siyмосi kompozitsiya jixatidan juda chuqur va mukammal ochib berilgan. Rassom bu asarda inson qiyofasini abadiylashtiribgina qolmay, balki barcha yuksak insoniy fazilatlar egasi, otash qalb, xayajon va tashvishga to'la buyuk yozuvchining jonli portretini yaratdi.

Raxim Axmedov portret janrida xayotga chuqurroq yondoshdi. Inson ichki kechinmalarini, xis –tuyg'ularini, orzularini, insonning go'zal qalbini o'z asarida ochib berdi. Uning «Ona o'ylari», «Surxondaryolik ayol», «Dexqon» portreti bunga yorqin misol bo'la oladi.

Malik Nabiev asosan portret janrida zamondoshlari bilan bir qatorda tarixiy allomalar obrazini xam yaratish ustida ko'p mexnat qildi. U 1952 yilda «Beruniy» obrazini yaratdi. 1993 yilda esa buyuk sarkarda «Amir Temur portreti»ni yaratdi. Portret kompozitsiyasini yaratishda rassomlarning o'ziga xos uslubi mavjud. Ular adabiy qo'lyozma, etnografik xujjatlardan unumli foydalanadilar.

Portret mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi; kalla portreti, ko'krak qiyofali portret (byust), yarim gavda portret, butun gavda qiyofasi portreti, portret kartina, guruxli portret, miniatyura portreti va xokazo. Portret kompozitsiyaning tuzilishida insoning tashqi va ichki qiyofasi, uning ruxiyati, shuningdek, qo'li, o'tirish xolati, liboslari, interyerdagi predmetlar asosiy vosita sifatida muxim rol o'ynaydi.

Xar bir rassom portret yaratishda o'z tajribasi, usuliga tayanadi. Bunga xar xil kutilmagan xolatda rang va texnikada bajarilgan portretlar dalil bo'la oladi. Baxodir Jalolovning kinorejissyor «Komil Yormatov» portreti bunga misol bo'la oladi. Shuning uchun portret yaratishda yoshlar ulug' portret ustalari tajribasini o'rganib ulardan unumli foydalanishlari lozim. Portretchi rassom avval tasvirlanuvchi bilan chuqurroq, tanishib, ma'lum muddat uni kuzatib, suhbatlashib, uning asosiy xarakteri, xususiyatlarini, ichki va tashqi dunyosini yaxshi o'rganishi kerak.

XX asrning birinchi yarmida ijod qilgan rassomlardan biri P.D.Korindir. U M. Nesterovning sodiq shogirdi edi. Pavel Dmitreevich Korin portret yaratishdan oldin, shaxsning ichki, tashqi dunyosini, psixologiyasini, yaxshi o'rganar edi. Shuning uchun xam uning asosiy xusiyatlarini, tashqi qiyofasi va xarakterini yaxshi ochib bera olardi. Rassom yorug'lik, ranglarni kompozitsiya bilan muvofiklashtirib portretning istruktiv qurilmasini puxta tasvirlar edi. U buyuk san'at arboblari va harbiy sarkardalardan Shesternev, Kachalov, Saryam, Igumkov, Leonidov, Konenkov,. Kukriniksi, Jukov, Tolbuxin, Govorov, kabi kuchli xarakterli, shioatli insonlarning portretlarini yaratdi. Taniqli yozuvchi va jamoat arbobi Aleksey Nikolayevich Tolstoy portreti bir qo'li cho'ntagida, ikkinchisida trubka, kostyum tugmalari qadalmagan galstuk biroz qiyshaygan krisloda xotirjam o'tirgan qiyofada tasvirlangan. Portretlarni yorug' yoki to'q rangda, rakurs xolatida tasvirlagan. Ulug' xaykaltarosh S.Konenkovning portreti xam shu tarzda tasvirlangan. Ulug' mo'yqalam ustasi yaratgan xar bir portret - san'at asarida tomoshabin tasavvurida inson taqdirini anglaydi. Obraz orqali biz insonning qalbiga kirib uning qayg'u-quvonchlariga sherik bo'lamiz. U o'z asarlarida insonni ulug'laydi, go'zal qirralarini ochib beradi. Korin Renato Guttuzo portretida – ulug' faylasuf, irodali teran xarakterli insonni tasvirlaydi. Guttuzo kresloda erkin xolatda o'tiribdi. Uning qo'l xarakati tabiiy mavjud ritm, rang imkoniyatlaridan foydalanib, ichki xayajonni muvafaqqiyatli ifodalagan. Rassomni keng yelkali qaddi-qomati kelishgan, yuz qiyofasi, qayrilgan qoshlari, burgut ko'zlari, kuchli irodali inson obrazini yaratdi, portret - kartina darajasiga yetkazdi. Rassom Korinning mo'yqalamiga mansub asarlari barcha rangtasvir surtmalari, burmalari, tasvir usullari o'ylab, benukson bajarilgan.

Korin Guttuzo portretini 13 seansda (3 soatdan) ishlab bitirgan. Portret bitgandan so'ng Guttuzo Korininga shunday degan: «Meni aristokrat qilib

tasvirlabsiz. Bizning tasvirlash usulimiz xar xil, lekin men sizlarning tasvir usulingizni xurmat qilaman».

XX asrning birinchi yarmida portret janrida ijod qilgan rassomlardan biri Vladimir Kaydalovdir.

1940 yilning boshlarida ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiyning tug'ilganiga 500 yil to'lishi munosabati bilan uning portretini yaratish uchun Butunittifoq konkursi e'lon qilindi. Konkursda ellikdan ortiq (sobiq ittifoq.) rassomlar qatnashdi. Rassomlar oldiga o'zbek adabiyotining asoschisi, shoir, gumanist, mutafakkir olim, davlat arbobi obrazini yaratishdek juda qiyin vazifa qo'yilgan (yagona murojaat qilinadigan material Maxmud Muzaxabbibining miniatyura namunasi edi). U A.Navoiy davri tarixini sinchiklab o'rgandi. Navoiy asarlarini o'qib, asar tuzilishi, mazmun mohiyati bilan tanishdi. Muzaxabbibi miniatyurasi shoirning tashqi qiyofasi xaqida tasavvur berardi. Kaydalov buyuk shoirning realistik obrazini yaratdi.

A. Navoiy o'z vatani va xalqiga chuqur muxabbat bilan sug'orilgan poetik meros qoldirdi. Konkurs jurisi rassomga (yagona) ikkinchi darajali mukofotni topshirdi. 1941 yilda Kaydalov A. Navoiy portretini ikkinchi marta yaratishga kirishdi. Portretni oxiriga yetkazishning imkoni bo'lmadi. Ulug' Vatan urushi boshlandi. Boshlagan ishini 1947 yilda davom ettirdi. Portretda shoirning ijod qilayotgan qiyofasi tasvirlangan. Oldida o'ymakor kursi, uning ustida kitob, chap qo'lida qo'lyozma ushlab turibdi. Deraza orqasida Xirot panoramasi iliq ranglarga boy, aniq yechimi, chexrasidagi psixologik xolat. Yorug' vositasida kolorit. Shoirning ishonarli qiyofadagi tasviri rassom maxoratidan dalolat. Navoiy portretida V.Kaydalov rang-texnik vositalarini amalda o'zlashtirgan yetuk moxir rangtasvir ustasi ekanligini tasdiqladi. Portret 1947 yilda yubiley ko'rgazmasida namoyish etildi va juri tomonidan asosiy portret deb qabul qilindi. Undan minglab nusxada rangli reproduksiyalar bosilib O'zbekistan shaxar qishloqlariga keng tarqatildi. Shoir obrazini yaratishdagi dastlabki ijod

samarasi litografiya texnikasida bajarilgan. Rassom shoirni ko'kragigacha kitob turgan kuchli zakovatli inson obrazini yaratdi.

Chingiz Axmarov - serqirra talant soxibi. Qaysi janrda qalam tebratmasin, u tasviriy san'atdagi nozik va lirik shoir sifatida namoyon bo'ladi.

Chingiz Axmarovning barcha asarlarida insonning ma'naviy axloqiy go'zalligi, oliyjanoblighi asosiy o'rinni egallaydi. Rassom miniatyura san'ati an'alarini davom ettirgan xolda novatorlik ruxi bilan sug'orilgan asarlar ijod qildi. CH.Axmarovning «Yosh Alisher» asarida navqiron Alisher ulug' sifat qiyofasida she'riyat, nafosat va buyuklik timsoli sifatida gavdalanadi. Butun olam chamanday yashnayotgan baxor fasli Alisher Navoiy qalbining donolik va zakovat nurlari bilan to'layotganidan, o'z ijodi va xayotini xalq va o'lka g'amiga safarbar etayotgan inson voyaga etishayotganidan darak berayotganday.

Rassom Xalima Nosirovani 1929-yilda birinchi marta G'ulom Zafariyning «Xalima» pyesasida Xalima obrazini ko'radi va qoyil qoladi. Uzoq yillar mobaynida u ajoyib san'atkor obrazini tasavvurida ardoqlab yuradi va 1973-yilda xolstga tushirishga muassar bo'ladi. Rassom Mukarrama Turgunboeva qiyofasida kabutardek yengil raks tushayotgan saxna parisini, Zulfiya orazida buyuk extiros bilan olamga nigox tashlagan shoirani, X.Nosirova siymosida raqqos san'atkorni ifoda etadi. «Nur sari»ga bag'ishlangan qator asarlarida ayollar olamga nur tarqatish, xayot berish uchun kelganday, go'zallik ramzi sifatida gavdalanadi. CHingiz Axmarov polotnolarida insonning ma'naviy go'zalligi, oliyjanoblighi ulug'vorlighi va ko'rkamlighi xaqidagi she'riyatdek tuyuladi.

## ***2.2 MAISHIY, DASTGOHLI KITOB GRAFIKASI VA PLAKAT KOMPOZITSIYASI.***

Maishiy janrdagi tematik kartinani yaratish mazmun va g'oyani ochib beruvchi voqea bilan bog'liq va voqeaning eng xususiyatli, qiziqarli nuqtasini tasvirlashni talab etadi.

Inson yashab turgan muxitda sodir bo'layotgan voqealarni ifodalovchi bu janr qadim zamonlarda paydo bo'lgan. O'tgan asrning demokratik rassomlari xalq xayotini astoydil xaqqoniy, tasvirlab berganlar. Bunga I.Repinning «Yangi kuyovni kuzatish», E.Makovskiyning «Xiyobonda», V.Perovinning «Uchovlon» va boshqa suratlari o'ziga xos misol bo'la oladi. Yoshlarning kundalik xayoti, mehnati, o'qishi tasviriy san'at maishiy janrning bir qator asarlarida o'z aksini topdi. V.Laktionovning «Frontdan xat» F.Reshetnikovning «Yana ikkimi», «Ta'tilga keldi» asarlarida Vatanga muxabbat, maktab xayoti bilan bog'lik g'oyalar tasvirlangan.

Maishiy janrda xam kompozitsiyaning talablari mavjud. Mazmun va g'oyani kompozitsiyaning ma'lum vositalarida ochib berish: ko'rish nuqtasi ufq, fazoviy uzoqlashish, shuningdek, kompozitsiya markazi, asosiy va ikkinchi darajali predmetlar yorug'ligi, tus, rang, kolorit munosabatlariga rioya qilishdan iborat. Perspektiva qonunlari, muvozanat, simmetriya, dinamika vazifalaridan to'g'ri foydalana bilish kerak. Kompozitsiya tuzilishi xona chekkasi (interyer) yoki ochiq xavoda bo'lsa-da, asosiy o'rinni odam qiyofasining tasviri egallaydi. Rassomning xayotni kuzatishi natijasida bo'lgan mavzuga oid ko'plab bajarilgan xomaki chizgi, etyud, eskizlari kompozitsiya tuzilishiga asos bo'ladi.

Ikki, uch figurali kompozitsiya tuzish uchun uyda yoki ishxonada odamlarning mexnat qilish yoki dam olish jarayonini tasvirlash uchun uning kasbi, xarakterini, xayotdagi voqeaning qiziqarli xolatini o'rganish lozim. Naturadan bajarish bilan bir qatorda xayoldan va tasavvur qilib ishlashni, mashq qilishni odatga aylantirish kerak. Bularning xammasi badiiy ijod jarayonining o'sishiga, tasavvurini boyitishda muxim vosita bo'lib xizmat qiladi. O'zbek rassomlari I.Z.Kovalevskayaning «Teatr lojasida» N.Kashinaning «Doyra chaluvchi qiz», R.Axmedovanning «Tushki dam olish», M.Saidovning «Ishga ketishyapti» kartinalari maishiy janrda ishlangan asarlardir.

Tasviriy san'atning rivojlanishi bilan birga rangtasvir soxasida janrlar paydo bo'la boshladi va tarixiy asar tushunchasi shakllandi. Tarixda yuz bergan

voqealarni o'zida aks ettiruvchi asarlar ko'pincha tarixiy kartina deb ataladi. U mustaqil janr sifatida «Uyg'onish davri»da vujudga kelib, XIX asrda yanada keng rivojlandi. Qaysi mavzuda asar yaratishdan qat'iy nazar, avvalo chuqur fikrlash lozim, shu bilan birga qobiliyat, maxorat, go'zallik xissiyotini ishga solish xam zarur. Rassom ommaning go'zallik, estetik talablarini aks ettiruvchi va unga badiiy madaniyatni olib kiruvchi shaxsdir. Xayotiy voqealar tarixiy janr kompozitsiya yechimida rassom tomonidan murakkab ijodiy taxlildan o'tadi. Kompozitsiya qonunlariga amal qilib, tomoshabinga kartina mavzusini ochib berishga xarakat qiladi. Rus san'atida bu janrning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri Aleksandr Ivanov edi.

**Aleksandr Ivanov** Peterburg Badiiy Akademiyasini 1828-yilda rassomlarni rag'batlantirish jamiyatining oltin medali bilan tamomlagan. A.Ivanov 1830-yilda akademiyaning pensioneri sifatida Italiyaga jo'naydi va o'ng tomonida tasvirlangan Moskva axli Morozovani achinish, qayg'u bilan kuzatadi.

Polotnoning chap tomonida tasvirlangan uning dushmanlari Boyarinani rosa kalaka qilib, achchiq istexzolar bilan ustidan kulishadi. Morozova obrazi ayniqsa ta'sirli chiqqan. Uni boshqa personajlar bilan taqqoslar ekanmiz uning o'z e'tiqodida mustaxkam turganligi yanada ravshan va tushunarli bo'ladi. Bu o'rinda Morozovaning imo-ishoralarini takrorlayotgan devona bilan Boyarinaning mutaassibligiga uchgan darvesh obraz juda xarakterlidir. Surikov suratda chuqur psixologizmga, jo'shqinlikka, ranglarning monand chiqishiga erishish uchun uzoq vaqt mashaqqat chekib ishladi. Rassom Morozovaning obrazini topishda, ayniqsa ko'p qiynaldi, juda ko'p etyudlar ishladi, lekin ularning bittasi xam uni to'la qoniqtirmadi. Va, nixoyat, Uraldan kelgan qiroatxon bir ayolga qarab etyud ishladi.

Boyarina Morozova tarixiy epopeyaning markaziy figurasidir. Surikov Morozova orqali irodali, o'z e'tiqodi, diniga qattiq ishongan odamning yorqin obrazini yaratdi. Kompozitsiyaning puxta o'ylanganligi, qaxramonlarning

diagonal bo'yicha o'ng va chap tomonda joylashtirilishi, suratga yugurib borayotgan bolaning kiritilishi tufayli Surikov chanani qalin olamon orasidan g'izillab ketayotgandek tasvirlashga muvaffaq bo'ldi. Surat koloritiga xos bo'lgan qora va oq ranglarning uyg'unligi suratning qaxramon-fojiaviy temasini ochishga yordam beradi. Boshdan-oyoq qora kiygan Boyarina Morozova ancha rang - barang, ko'rkam fonda bir qoramtir dog' bo'lib, suratning xam kompozitsion, xam ma'navi markazi bo'lib xizmat qiladi va diqqatimizni o'ziga tortadi.

Rassom I.Repin ijodida tarixiy janr muxim rol o'ynaydi. Uning «Sofya», «Ivan Grozniy», «Zaporozhliklar» asarlarining g'oyasi Moskva xayotidagi muxit, rus tarixiga berilib ketgan V.Vasnetsov, V.Polenov kabi rassomlarning ta'sirida yaratdi. Eng axamiyatli tomoni «Ivan Grozniy va uning o'g'li shaxzoda Ivan» (1885y.) tarixiy kartinasini yaratishga Rimskiy Korsakovning simfoniyasi turtki bo'ldi. Uning asosiy mazmuni tasodifan sodirir bo'lgan o'lim (xayotiga qasd qilingan) va pushaymonlikdir. Asar insonda yaxshilikka qarshi g'azab, norozilik uyg'otishga chorlaydi. Interyerda to'q fonda yorug' tushib turgan ikki figura orqali asar yechimini topgan. Yerdagi gilam Grozniy va shaxzodaning liboslari, ularning yuzlaridagi xayajon qo'rkinchli ruxiy xolat, xonadagi narsalar to'k ranglarda ustalik bilan tasvirlangan.

Ilya Repinning nafis tasviriy san'at jixatidan moxirona va mukammal ishlangan asarlaridan biri "Kutmagan edilar" polotnosidir. Rassom bu asarni yaratar ekan, bir necha eskizlar variantlaridan markaziy qaxramonni turlicha talqin etib ko'radi. Biz ko'rgan variantda qaxramonning revolyusiya surgunidan ozod bo'lib, o'z oilasiga qaytib kelishi tasvirlangan. Birinchi planda, suratning markazida, rassom xayajon va sarosimada o'g'liga peshvoz chiqmoqchi bo'layotgan onani tasvirleydi. Shu bilan kompozitsiya markazini aniqlaydi. Surgun qilingan odam xonaga kirib kelarkan, uning butun kiyofasida, ayniqsa yuz-ko'zlarida, g'amginlik, xadiksirash bor. Kreslodan turgan qari onasining bukchayishidan, qo'llarining qaltirashidan o'z o'g'lini

taniganligini, qattiq xayajonlanayotganini xis etamiz. Royal oldidagi ayol bezovtalik bilan kresloga suyanadi. Ko'zi oldida eri turganligiga u xali xam ishonmayotganday. Uning yuzida xayrat va sevinch. Bolalar bu voqeaga turlicha munosabatda bo'lishadi. Bola aftidan otasini unutmaganga o'xshaydi, uning kelganidan juda xursand, qizcha uchun esa u odam begona, shuning uchun xam u uylariga kelgan bu g'alati odaga xadixsirab qaraydi. Bu kutilmagan voqea oddiy intelligent oilaning turmush sharoiti, uy jixozlari yaxshi tasvirlangan. Asar vazmin, kul rang bo'yoqlar gammasida ishlangan. Xonaning sal yoritilganligi, xavoning ochiqligi, buyoqlar uyg'unligi nixoyatda ustalik bilan berilgan. "Kutmagan edilar" polotnosi odatdagi maishiy temadagi suratlardan ustun turib, katta ijtimoiy mavzu va ma'no kasb etgan.

N.Gening «Petr I shaxzoda Alekseyni Petergofda so'roq qilmoqda» asari xam tarixiy xujjatlarni sinchiklab o'rganish, Petergof saroy xonalaridan etyudlar, eskizlar yozish natijasida yaratilgan. Asarda eski va yangi shakllangan xarakterlar, qudratli rus davlatining sardori, Yevropaga yo'l ochgan ulug' Petr tasvirlangan. Jang manzaralarini aks ettiruvchi janr o'z tematikasi jixatidan tarixiy janrga yaqin turadi. Buning sababi shundaki, jang manzaralarini ko'rsatuvchi bu asarlar faqat urush voqealarini aks ettiribgina qolmay, jang bilan bevosita bog'liq bo'lgan tarixiy voqealarni aks ettiruvchi tarixiy janrning bir qismi deb qaralishi mumkin. Askarlarning vatanparvarligi, fidokorligi, mardligini V.Surikov o'zining «Suvorovning Alpdan oshib o'tishi» suratida aks ettirgan. Bu asarda rassom Suvorovning xarbiy san'atini katta maxorat bilan tasvirlagan. Jang manzaralarini ko'rsatuvchi janrga B.Grekov asos soldi.

Xar bir san'at asarini yaratishda mazmun va g'oyaning asosiy yechimi eskizda o'z aksini topishi lozim. Keyinchalik eng yaxshi bajarilgan eskiz tanlab olinadi. Izlanish jarayonida kompozitsiyaga kerakli detallarni, narsalarni aniqlab olish lozim, mavzuda sodir bo'layotgan voqeaning markaziy qismini topish kerak. Eskiz bajarish jarayonida yaxlitlik, masofa, keyinchalik, xavo perespektivasi qonunlariga asosiy va ikkinchi darajali gurux

xususiyatlariga, kolorit tanlashga aloxida ahamiyat berish o'rinlidir. Kompozitsiya tuzilishini topish uchun naturadan - odamlar guruxidan tezkor chizgilar, eskizlar bajarish zarur. Chunki o'tkir qobiliyatni ijodiy tasavvur, «fantaziyani» shakllantirish aynan shu jarayonda sodir bo'ladi. Bu ijodiy jarayondagi o'ziga xos ko'nikmalarni xosil qilish uzoq vaqt mashq qilib ishlashni talab etadi.

Kompozitsiya-bu muallifning ijodiy, badiiy ifodasi, maxsuli xisoblanadi. Shunday ekan tasviriy san'atning barcha janrlarida kompozitsiya yaratish yuksak darajada bilim, ko'nikma, malaka xamda qobiliyat, salohiyatni talab etadi. Shu bois bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan vaqtdanoq keng qamrovli faoliyatga o'zlarini tayyorlab borishlari lozim.

O'zbek tasviriy san'atida maishiy janr XX asr 20-yillarini ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshladi. 1926-yili Toshkentda AXRR (Assoniatsiya xudojnikov revolyusionnoy Rossii)ning filiali tashkil etildi. Assotsiya janrni rivojlanishida muxim rol o'ynadi. Tashkil etilgan ko'rgazmalardagi ishlar rassomlarda qoniqish xosil qilmadi. Ular xayotda bo'layotgan o'zgarishlar mexnatkash xalqning tabiatga, yerga bo'lgan munosabatini sinchiklab o'rgandlar.

Ko'rgazmalarda U.Tansiqboev, A.Toshkentbayev, B.Xamdamiy, L.Abdullaev va A.Roziqovlar qatnasha boshladilar. Yangi nomlar paydo bo'ldi, rassomlar tomonidan asarlarning saviyasi o'sib, ijodlari rivojlana bordi. Rassomlarni ko'p figurali kompozitsion tasvir va rang vositalari qiziqirdi. Shu tariqa 20-30-yillarda O'zbekistonda maishiy janr shakllanib, rivojlandi. Ana shu davrda samarqandlik rassom L.Bure, o'zining ijodiy va pedagogik faoliyatini boshladi. Uning dastlabki (1928y.) kompozitsiyalari «Tandir quruvchilar», «Buxoroda Nodir Devonbegi xavuz suv tashuvchilari» bo'lsa, 1930-yillarda «Maktab qurilishi», «Paxta terimi» kabi iborat rasmlar yaratdi. Sxematik chizgi tasvirlarda nuqsonlar mavjud, lekin taxminiy ranglar ifodasi kartinani xayotiy etib ko'rsatadi.

Rassomlarning keksa avlod vakillaridan biri Aleksandr Volkovdir. Dastlabki ijodiy izlanishlaridagi formalizm yo'ldan qutulib, xayotni realistik tasvir uslubiga qaytadi. U ko'p asarlarida inson obrazini, yangi xayotni jozibali ranglarda tasvirlaydi. Uning 20-30-yillarda yaratgan: «Choyxonada», «Eski shaxar choyxonasi», «Anorli choyxona» asarlari shular jumlasidandir. Choyxonada choy ichish, bu inson qalbini yumshatib suxbat qurish. xayot muammolari bilan o'rtoqlashishga, yaqin muloqotda bo'lish uchun muxim ma'naviy extiyoj makoni. U, shuningdek, Respublikaning yangi qurilish ob'ektlarida bo'lib, «Qurilishda», «Paxta terimida», 1933-1934 yillarda «Brigada majburiyat qabul qilmoqda», «Xosil» triptix, «Sbor ekskavatora», «Chirchikstroy», «Tashselmash» asarini yaratdi. U o'z asarlarida mexnatkash inson xayoti, uning mexnatini, Respublikada rivojlanayotgan industriya qudratini aks ettirdi.

O'zbek tasviriy san'atining siymolaridan biri Baxrom Xamdamiydir. U 1935-yilda Toshkent rassomchilik texnikumini imtiyozli diplom bilan tamomladi. Rassom A. Volkov, M. Kurzin, O. Tatevosyan kabi ajoyib rassom - pedagoglardan ta'lim oldi. O'sha vaqtda tuzilgan A.Volkov rahbarligidagi ijodiy brigadalardan biriga Baxrom Xamdamiy xam kirgan edi. Brigadada u Tansiqboyev, N.Koraxon, A.Podkovrov, A.Toshkanboyevlar bilan do'stlashib Respublika bo'ylab ijodiy safarda bo'ldi, yig'ilgan materiallar kelajak ijodiga zamin yaratdi. Xayotdagi o'zgarishlar, xalqning mexnatdagi muvafakkiyatlari rassomni ijod qilishga ilxomlantirardi. Xar bir kartinani yaratishda sidqidildan, muxabbat bilan yondoshardi. 1936-38 yillarda yaratgan «Choyxonada oqshom», «Sevimli qo'shiq», «Tasvir to'garagi» kabi kartinalari shu mexnatning samarasidir. 1936-yilda bir gurux, yosh rassomlar qatori u Moskva va Leningraddagi Davlat Tretyakov galereyasi, Pushkin nomidagi Davlat Tasviriy san'at muzeyi, Davlat Ermitaji, Rus muzeyida rus va G'arbiy Evropa san'ati durdonalari bilan tanishishga muvaffaq bo'ldi. Rassom 1939-yilda «Ish tugaganda» deb atalgan kartinasini yozib tamomladi. Bu asar 1940-yil

Respublika ko'rgazmasiga qo'yildi va mutaxassislar tomonidan o'zining badiiy jixatdan O'zbekiston rassomlarining maishiy mavzuda yaratgan asarlari ichida birinchi va eng yaxshi asar sifatida tan olindi.

Kartina qaxramonlari- O'zbekiston kishilari, xalq qurilishining kamtarin baxodirlari. Oldimizda o'zaro suxbatlashayotgan bir gurux kanal quruvchilari yirik planda gavdalangan. Rassom o'zbek xalqining milliy xususiyatlarini yaxshi bilgan. Shuning uchun kartina kompozitsiyasi tabiiydek bir butun tarkibiy yaxlit, rassomga yaxshi tanish, yosh quruvchilarning oftobda qoraygan, bronzadek qomatlari xam, keksaroq erkakning yashil zangori kiyimlari abxazcha kigiz qalpoq kiygan ishchining elkasidagi beqasam to'ni xam, choshgoxdagi kalta soyalar xamma-xammasini rassom ishonarli jonli bo'yoklarda yaxlit va yakka detallarning uyg'unligini xis qilib tasvirley olgan.

Rassom 1941- yilda «Farxod Xisrav asrligida» kartinasini yozib tamomladi. Bu polotno buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning tug'ilganiga 500 yil to'lishi munosabati bilan yaratilgan edi. Xamdamiy bu kartinada o'tkir shoirona tafakkurini, iste'dodini, maxoratini namoyish qilgan. Rassomning bu kartinasi o'zbek dastgoxli san'atining Navoiy asari misolida yaratilgan namuna asar bo'lib qoladi.

Nadejda Kashinani dastlabki yaratgan «Paxta terimida» asari 1930-yillarga to'g'ri keladi. Kashinani asosan mexnatkash o'zbek xotin-qizlarining xayoti, mexnati, quvonchi, taqdiri qiziqtiradi. Ular yashab mexnat qilayotgan quyoshli o'lka, inson qo'li bilan yaratilayotgan bunyodkorlik ishlari rassomning asosiy mavzuidir. U yaratgan «Childirma chalayotgan qiz» (1945y.), «Tushki tanaffus»(1949y.), «Zvenoning yutug'i-- (1949y.) asarlari nafis, yorqin ranglarda ifoda etilgan, tomoshabinga shodlik va quvonch baxsh etadi. U asarlarida ayollarning ichki xissiyot va kayfiyatlarini ochib berishga muvaffaq bo'ladi. Uning asarlarini milliy rux bilan sug'orilgan maishiy kompozitsiya namunasi deyish mumkin. Xar soxada ijod qilgan ko'pgina passomlar o'zlarini maishiy janrda sinab ko'rganlar. G.Chernuxinning «Sharqona bozor --- (1978y),

«Mexnat romantikasi» (1975 y), «Paxta» (1978 y), «Ko'k choy» (1972 y), V.Kovinning «Xirmonda», «Qurultoy kunlarida» (1969 y), V.Burmakin «Oila», «Oq xalati kishilar». R.Axmedovning «Qo'shiq» (1964 y.), M.Saidovning «Oila», «Askiya» kabi asarlari misol bo'la oladi.

Dastgoxli va kitob grafikasi xam tasviriy san'atning barcha turlari kabi kompozitsiyaning umumiy qonunlariga tayanadi. Dastgoxli grafika o'z xususiyatlariga ega bo'lib - shakl, masofa, chiziq, shtrix va kontur vositasida oq-qora tasvirda ifoda etiladi.

Kitob grafikasi XIX va XX asrga kelib rivojlana boshladi. Ayniqsa V.Favorskiy, D.Shmarinov, E.Kibrik, O.Vereyskiy kabi rassomlar klassik adabiyot asarlarini chuqurroq o'rganib kitob grafikasini yuksaltirdilar.

Kitob grafikasi bezagining muvaffaqiyatli chiqishi, rassomning qobiliyatiga, adabiyotni qanday taxlil qila olishga bog'liq. Maxorat cho'qqisini egallagan bezakchi rassomlar kitob mazmunini aloxida grafik asari darajasi yetkazadilar. Rassomlar D.Kardovskiyning yozuvchi A.Chexov «Kashtanka--», A.Griboedovning «Gore ot uma» va A.Benuaning, A.Pushkinning «Mis chavandoz» asarlariga ishlangan kitob bezaklari nixoyatda muvaffaqiyatli chiqqan.

Rassomning vazifasi shundan iboratki, u voqeani, adabiy obrazni, kitob mazmunini tasvir orqali tushunishga yordam berishi kerak. Kitob uchun ishlangan illyustratsiyalar shakl jixatidan dinamik, rangdor, ta'sir etuvchi, adabiy asarning tekst matnini jozibali qilib ko'rsatishga yordam berish lozim, Bolalar kitobiga ishlangan tasvirlar bolalarning uzoq vaqt eslarida qolib, ularning badiiy didlarini o'stiradi. Bezak jarayonida format va xarf ishlashda bolalarning yoshlari va talablarini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Zarvara (kitobning ustki qismi) o'quvchilarga adabiy matnning ma'lum yo'nalishini tasavvur etishlari uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari kitobning ustki bezagi reklama vazifasini xam o'tashi mumkin. Muqova bezagi kitob mavzusining maqsadiga muvofiq bo'lishi uchun kitobning nomi, uni ifodalovchi

tasvir, matn munosabatlari xamda uyg'unligi va birligiga axamiyat berish lozim. Muqova bezagidagi kompozitsiya tuzilishi, mazmun va g'oyani kitobning QAYSI yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallanganligini belgilab berishi lozim. Kitob illyustratsiyasini tayyorlashda uning qanday asarligiga aloxida e'tibor berish kerak. Ilyustratsiya grafikasi yaqin masofadan ko'rishga mo'ljallanadi. Kitob mazmuniga qarab tasviriy vositalardan foydalanish mumkin (u grafit, qalam, akvarel va xokazo). Badiiy obrazlar rassom qanday yo'nalishda va texnikada tasvir bajarish lozimligini belgilaydi.

Bir kitobda qalam tasvir, soya - yorug', shakl, xavo perspektivasi vosita bo'lsa, ikkinchisida ertak mavzusi odam va xayvon, o'simliklardan dekorativ tema usulida ifodalashi mumkin. Bilibinning «Qurbaka malika» ertak kitobining bezagini misol qilib keltirish mumkin. Kitob muqovasida Bilibin rus xalq naqshlaridan foydalanib, baliqlar, suv parilari tasvirini ritm qaytarilishida ustalik bilan tasvirlagan. Muqova o'rtasida eski rus xarfida sarlavxa joylashtirilgan Shrift xarakteri dekorativ tasvirga mos tushgan. Ertak illyustratsiyalari ornament shaklida tasvirlangan.

O'zbek kitob grafika san'atining rivojlanishi XX asrning 40-50-yillariga to'g'ri keladi. Kitob grafikasining ko'zga ko'ringan keksa vakillari V.Kaydalov, I.Ikromov, M.SHchirovskiylardir.

Keyingi paytda T.Muxamedov, A.Siglinsev, A.G'ulomov, M. Kagarov, Vaxitov kabi iste'dodli grafika san'ati rassomlari o'zlariga xos sermazmun ijodlari bilan o'zbek kitob grafikasi san'atining rivojlanishiga o'z xissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bezak san'atining asosiy qonun - qoidalarini o'rganishda albatta kitob grafikasi namunalarining mualliflari V.Kaydalov, M.Kagarov, T.Muxamedovlar bilan birga rus grafika rassomlari I.Bilibin, B.Kibrik, D.Shmarinov, D.Bisti asarlariga murojaat qilish mumkin. Xulosa qilib shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ko'p yillik ijod va tajriba natijasida shakllangan kitob grafikasidagi kompozitsiya bezagining qonun va qoidalari ko'plab rassomlar tomonidan tan olinib o'z ijodlarida qo'llab kelmoqdalar.

Kitobat san'ati Sharq madaniyatining qadimiy va nodir turlaridan biri. Kitobda millat tarixi, ilm-fan sirlari, ulug' mutafakkirlarning falsafiy va estetik qarashlari, doston, ruboiylari o'z aksini topgan. Sharq kitobat san'atida xattot, naqqosh, rassom muqovasoz, zarxal xarf mutaxassislarining badiiy maxoratlari tufayli kitoblar yuksak badiiy saviyadagi asarlar darajasiga ko'tarildi. Shu bois Sankt-Peterburgdagi Ermitaj, Nyu-Yorkdagi metropoliten, Londondagi Britaniya muzeyi, Parijdagi Fransiya milliy kutubxonalarida Sharq kitobat san'atining nodir namunalari saqlanmoqda.

Qadimgi nodir qo'lyozmalar asosida bizgacha saqlanib qolgan nafis mo'jaz rasmlar aloxida o'ziga xos go'zallik nafosat olamiga ega. Ulardagi yorqin ranglar-nozik chiziqlar va ajoyib mutanosiblik xamon tomoshabinga estetik zavq bag'ishlaydi. Shuning uchun xam bu san'at namunalari jaxonning eng nufuzli muzey va kutubxona majmualarida asrab avaylanmoqda. Turli san'atkor rassomlar, muzaxhib, muqovasoz jadvalkash va boshqalarning ijodiy xamkorligida yaratilgan nodir qo'lyozmalar o'sha davrni madaniy-ijtimoiy xayotini o'rganishda qimmatli manbalardan xisoblanadi. Nafis mo'jaz rasmlar asosan ilmiy, badiiy va tarixiy asarlarning nodir qo'lyozmalarini bezashga xizmat qilgan. Eron miniatyura san'ati kitob illyustratsiyasi shaklida yuza kelib XI asrdan XIV asrgacha xam kitob va qo'lyozma varag'i bilan uzviy bog'liq xolda rivojlandi.

Qadimgi Eron qo'lyozmalari muqovasining rang-barangligi, nafis qog'ozga yozilgan xusnixatning nafisligi, miniatyuralarning yorqin bo'yoqlari va naqshning bezaklari xamon kishining diqqatini o'ziga tortib keladi.

Miniatyura o'ziga xos murakkab texnika vositasida bajariladi. Tasvir konturi qog'ozga ingichka peroda tushda tushirilib mineral bo'yoqlar tuxumning oqidan yoki o'simlik mumidan tayyorlangan. Bo'yoqlarga oq rangni qo'shib ishlatish, ko'rinishni xar xil tusda tasvirlash imkonini beradi. Rasmning tashqi bezaklariga tilla va kumush suvi yugurtirilgan qo'lyozma kitobning zarvarag'i rang-barang ornamental naqshlar bilan o'ralgan. Saxifalarning xoshiyasi o'simliklarni

tasvirlovchi naqshlar va qushlar shakli bilan to'ldirilgan bo'lib, oqish rang, tilla suvi yoki zarxal bilan qoplangan. Teridan qilingan muqovalar esa tilla qo'shilgan naqshlar bilan zarb qilingan.

XVI asr eron rang tasviri Isfaxon shaxri bilan bog'liqdir. Isfaxon maktabining asoschilari va yaratuvchilari Og'a Rizo va uning mashxur shogirdi, izdoshi Rizo Abbosiydir. Rizo Abbosiy shox Abbos saroyida saroy rassomi edi. U xam o'z zamondoshlari qatori rang tasvir asarlarining moxirona ustasi bo'lgan, zamondoshlar portretlarini yaratgan. Toshkentdagi O'zbekiston Davlat muzeyida Rizo Abbosiy mo'yqalamiga mansub deb topilgan «Yigit portreti» saqlanmoqda. Turkiyaning miniatyura san'ati, ayniqsa, Maxmed II (1451-1481) zamonida juda xam taraqqiy etdi. XV asr oxiri XVI asr boshlarida yaratilgan Nizomiy Ganjaviyning «Xisrav va Shirin» dostonida 15 ta miniatyura bor. Odam qiyofasi, turkcha liboslar, tasvir uslubi O'rta Osiyo san'atiga o'xshab ketadi. XVI asr oxirlarida yaratilgan ko'p jildlik «Xunarnoma» asariga musavvir Usmon 160 ta miniatyura ishlagan. Shuningdek, o'z iste'dodi bilan Bexzod Soniy (ikkinchi Bexzod laqabini olgan) Nigoriy Sulton Salim saroyida bosh musavvir bo'lib xizmat qiladi. Turk xattotlik san'atining o'ziga xos maktabini yaratganlardan biri Shayx Xamidulladir. U qur'on va ko'pgina boshqa badiiy asarlarni xusnixatda ko'chirgan. Turk san'atshunoslarning ta'kidlashicha Istanbulning To'lqolu Sariti muzeyida va Lyo Sofiya muzeyida Samarqand va Xurosonda kitobat qilinib miniatyuralar bilan bezatilgan yuzga yaqin qo'lyozmalar avaylab saqlanmoqda. To'lqolu Sariti muzeyida saqlanayotgan Firdavsiyning «Shoxnoma», Nizomiyning «Xamsa»si, yuz varaq, 650 suratdan iborat Boysunqur Mirzo albomi, Amir Temur va temuriyzodalar suratlaridan iborat varaqalar, Baxrom Mirzo, SHox Islom albomi va o'nlab Ulug'bek Mirzo va Sultoni Xusayn Mirzo muxrlari chekilgan qo'lyozmalar shular jumlasidandir.

O'rta asrlardagi diniy ta'qib va tazyiqqa qaramay ozarbayjon musavvirlari Sharq adabiyoti daxolarining asarlari va nodir qo'lyozmalariga nafis mo'jiza miniatyuralar chizganlar. Ayniqsa, Abdulqosim Firdavsiyning

«Shoxnoma», Nizomiy Ganjaviyning «Xamsa», Hofiz va Sa'diy Sheroziy, AMIR Xisrav Dexlaviy va Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiylarning bir qancha qo'lyozmalariga chizilgan miniatyuralar jaxon tasviriy san'atining noyob durdonalari qatoridan munosib o'rinni egallab turibdi,

XIV asr oxirida yirik madaniyat markazlardan Bog'dod, Sheroz va Xirot shaharlarida xam mustaqil miniatyura rassomlik maktabi mavjud edi. Xuroson davlati poytaxti Xirot shahrida XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida, o'z davrining iste'dodli rassomlari ustoz Kamoliddin Bexzod raxnomoligida ijod maktabi mavjud edi. Ustoz Kamoliddin Bexzodning maxoratda tengsiz shogirdlaridan bo'lgan Dust Devona ismli rassom xam Xindistonga ketib, o'sha yerda shuxrat orttirgan ekan. Bu moxir rassomning mashxur Maxmud Muzaxhib bilan xamkorlikda yaratgan rasmlari bilan bezalgan nodir qo'lyozma asarlaridan biri hozirgi kunda Xindistonning Xaydarobod shahridagi Salorjang muzeyi fondida saqlanmoqda.

Boburiylar saroyi qoshidagi maxsus rassomlik ustaxonasiga Xumoyun tomonidan asos solingan bo'lsa-da, yangi rassomlik uslubining rivojlanishi Boburning nabirasi Akbarning taxminan yarim asrlik xukmdorlik davriga to'g'ri keladi. U yoshligidanoq xattotlik va rassomlik taraqqiyotiga juda katta e'tibor berib, saroy qoshidagi ustaxonalarga rassomlarni jalb etdi va ularga xomiylik qildi. Xattotlarning ijodini rolini juda muxim va zavq olish manbai xisoblab, ruxoniylardan dadil ximoya qilgan.

XVI asrning ikkinchi yarmi xind miniatyura rassomligi tarixiga nodir qo'lyozmalarga rasm ishlash davri bo'lib kirdi. Akbarning o'g'li Nuriddin

Muxammad Jaxongir (1605-1627) va uning o'g'li Shaxobiddin Muxammad Shox Jaxon (1628-1658) lar davrida bu san'at bilan shug'ullanish davom etdi. Govardxon, Bichitr, Chitarman ismli san'atkorlar bilan bir qatorda Muxammad Nodir va Muxammad Murod nomli samarqandlik rassomlar xam yuksak asarlar yaratganlar. Qadimda odamlar papiros o'simligi poyasidan, tut daraxti poyasidan

qog'oz yasaganlar. Ba'zida qog'oz o'rnida mol terisidan xam foydalanilgan. Bosmaxonalarning paydo bo'lishi bilan kitobning muqovalari xam o'zgardi. Natijada kitobning turlicha bezaklari, yangi belgilari, elementlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Muqova kitobning nomi, muallifi, mazmuni xaqida ma'lumot beruvchi tarkibiy qismi xisoblanadi. Mato qoplangan yoki tomonlari qog'oz bilan qoplangan muqovalarga rangli illyustratsiyalar ishlanadi. Muqovalar ancha mustaxkam, tekis qog'ozlardan yasaladi va unda rang-barang bosma tasvir berish imkoni tug'iladi. Muqovalar ko'pincha pereplyot vazifasini xam o'taydi. Pereplyot - kitobning ko'rinarli qismi va saqlovchi vazifasini bajaruvchi qattiq qalin qog'ozdan iborat. Ayrim xollarda muqova ustiga jild (superoblojka) kiydiriladi. Muqovaning ichki tomoni forzats deb ataladi, kitob bloki bilan muqova tanasini bog'laydi. Kitob titul varag'i bilan boshlanadi. Titul varag'i ikkinchi va uchinchi betlarni egallashi mumkin. Titul va kitob nomi, muallif ismi va familiyasi, nashriyot nomi, nashr yili, joyi kabilar joylashtiriladi. Titul varag'i terilgan yoki rassom tomonidan chizilishi mumkin.

Birinchi betda biroz joy tashlanib tekst boshlanadi. Bunga kichik illyustratsiya, gul, naqsh kabi bezaklar boshlanma (zastavka) beriladi. Kitob nashr etish illyustratsiyalarni keltirib chiqardi, u o'z navbatida gravyuralarning kelib chiqishiga olib keldi.

Illyustratsiyalarni ofortda qo'rgoshinda o'yib ishlash, ksilografiya va litografiyaning qo'llanishi illyustratsiya kitoblar miqdorining ko'payishiga sabab bo'ladi. Biror badiiy asar yoki uning biror voqeasi asosida ishlangan rasmni illyustratsiya deyiladi. Tanlangan mavzuga mos tasviriy syujet xosil qilinishi illyustratsiyaning asosiy talabi xisoblanadi,

Rassom adabiy asarni o'qib o'rganib, tasvirga mos bo'lgan epizodlar ajratib illyustratsiya eskizini chizadi. Mazmun bilan illyustratsiyalarning xamoxangligini qay darajada ifoda etishi rassomning iste'dodiga bog'liq. Illyustratsiyada eskiz kompozitsiyani ochib berishda katta rol o'ynaydi. Chunki

bir necha eskizlarni o'zaro taqqoslab, yaxshi kompozitsiya yechimini tanlab olishni imkoni bo'ladi. Ilyustratsiya kompozitsiyasini uning texnikasi belgilaydi. Badiiy asar syujetiga qarab illyustratsiya chiziqli yechimda yoki rangli yechimda bo'lishi mumkin.

O'zbek xalqi madaniy merosga juda boy. Ayniqsa kitob san'atidagi tajribasi yuksak darajada. O'zbekiston xalq rassomi Iskandar Ikromov maxsus grafika ta'limini olgan birinchi musavvir bo'lib, O'zbekiston kitob grafika taraqqiyotining yo'nalishi uning nomi bilan bog'liqdir. Leningradda professor V.N.Levitskiy qo'lida o'qigan. Rassom o'tmish musavvirlarning bezaklari, o'zbek naqshlarini qunt bilan o'rganib, zamonaviy chop etiladigan kitob bezaklarda qo'llay boshladi. Shu tariqa kitob badiiy bezagining mavzuga muvofiqligi va mosligiga erishdi. Zarvaraqaalarni bezatishda xam rassom o'simlik va geometrik, buta, g'uncha naqshlarni qo'lladi.

I. Ikromov Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» asariga chamanzor bog', butalardagi qushlar, naqshli bog' darvozasi tasvirini chizgan. Qo'lyozma kitoblardagi xattotlikning betakror bezaklaridan ilxomlanib, ularni o'z asariga singdirgan, o'ziga xos kompozitsiyalar tuzgan. I.Ikromov bezagan kitoblar 1959-yilda Leypsigda bo'lib o'tgan xalqaro kitob ko'rgazmasida yuqori baxolandi va bronza medali bilan taqdirlandi. Ulkan san'atkorning iste'dodi A.Navoiyning «Lirika» kitobi (1965y) ni bezaganda yanada yorqinroq namoyon bo'ldi. Muqova gullagan daraxt shoxida o'tirgan tovus, uning duxobadek toblangan dumi, kitob nomi yozilgan xarflar naqshlar bezagi bilan uyg'unlashgan.

San'at - xar xil qismlarni o'zida mujassam qilgan, faqat fidoiylik bilangina yaratish mumkin bo'lgan sexrli olam. San'atning millati bo'lmaydi. Sharqni O'zbekiston timsolida ko'rgan musavvir Usta Mo'min shunday sharafga molik san'atkor edi. U taxallusiga munosib tarzda o'zbek tabiatini odamlar qiyofasi orqali aks ettira oldi va O'zbekistonning suyukli rassomlaridan biriga aylandi.

Usta Mo'min (Aleksandr Vasilyevich Nikolayev 1897-1957) da Samarqandda Sharq klassik an'analari, XVIII asr miniatyura maktabi ta'sirida rasmlar chiza boshladi. Samarqanddagi jonli xayotni, maxalliy urf-odatlarini qiziqib o'rganishi uning rassom sifatida o'ziga xos uslub yaratishiga imkon berdi. Sherdor madrasasidagi xujrada yashab yurgan kezlarda o'zbekcha kiyinib xalqqa yaqin bo'lish, uning ruxiyatini o'rganish maqsadida choyxonalarda uzoq o'tirar, bozor kezib o'zbek tilida gaplashar edi. Uning 1924-yilda yaratgan «Dutorli bola», «Baxor», «Bola portreti» kabi asarlari izlanishlar davrining badiiy ifodasidir.

Nikolayev dilkash odam bo'lganligi uchun maxalliy xalq uni Usta Mo'min deb chaqirar edi. Tabiatiga mos kelganligi tufayli u Usta Mo'min taxallusini tanladi. Shu tariqa moybo'yoqchi rassom va grafik sifatida elga tanildi. «Choyxonachi» (1929 y), «Oq oltin» (1934 y), «Uyg'ur teatri» (1934), «Otalar yurti» (1945 y) kabi asarlarida sodda va yorug' ranglarda ajoyib tasvir va mazmunlar kashf etdi. Usta Mo'min kitob grafika san'atini xam yaxshi egallagan edi. S.Ayniyning «Zeki maktab» asariga chizgan rasmlari (1934 rassom maxoratining nozik qirralarini ilg'ashga asos beradi).

Abdulla Qodiriyning «Obid ketmon», G'afur G'ulomning «Tanlandan asarlari»ga rasmlar chizib, o'z san'atini namoyish qildi. Usta Mo'minning «Nasriddin Afandi latifalari» to'plamiga chizgan rasmlari (1936 y) ko'p jixatdan e'tiborga loyiq, Afandi quvnoq donishmand beayov mexribon inson obrazidir. Uning obrazi rasmlarda kulgili, o'zining beshafqat tabassumi bilan namoyon bo'ladi. U xamisha xayot bag'rida, odamlar orasida. Usta Mo'minning bu turkumdagi rasmlari o'zbek xalq shoiri G'afur G'ulomning e'tiboriga sazovor bo'lganligi xam bejiz emas. Yozuvchi Said Axmad G'.G'ulom xaqidagi xotiralarida bunday yozadi: «Shu paytgacha yaratilgan Nasriddin Afandi portretlari ichida Usta Mo'min ishlagan portretni ma'qul ko'rardi. Juda yoqimtoy obraz topgan qoyil qolardi». Musavvir asarni lirizm bilan sug'orish, unga go'zallik bag'ishlash maqsadida rasmlardagi qaxramonlar juda muloyim, mayin,

sodda tarzda tasvirlanadi. Usta Mo'min o'zining serqirra ijodi, yangicha uslubi bilan respublikamiz tasviriy san'atini rivojlantirdi.

Kitob grafikasida ijod qilgan katta va o'rta avlod vakillarini ayrim kitob bezagi namunalarini taxlil qilib ko'ramiz. O'zbekistonda ko'plab grafik va kitob bezagi rassomlari ijod qilishgan. Ular orasida B.E.Kaydalov alohida o'rin tutadi.

V. Kaydalov 1930-yilda yosh rassomlar jamiyati (AXR) a'zolari N.Odinov, K.Sobolevskiy bilan ilk bor O'rta Osiyoda ijodiy safarda bo'ldi. Bu ijodiy safar rassomda chuqur taassurot qoldirdi, Bu o'lkaning go'zal tabiati, xayoti, odamlari uni rom etdi. 1932-yilda V.Kaydalov O'zbekistonga keldi va gazeta, kitob, plakat rassomi sifatida ishlay boshladi. Gazetada ishlagan faoliyati poligrafiya texnikasini yaxshi egallab oldi. Respublikada bezakli kitoblarni chop etish keng yo'lga qo'yila boshlandi. U o'z navbatida rassomga o'zining ijodiy nusxalarini ko'paytirish imkonini berdi. 1934-yilda rassom estamni yog'ochga, keyin linoliumga o'yishni egallab, tematik kompozitsiyalarda, manzaralarda sinab ko'rdi, keyinchalik ulug' shaxslar (portret) obrazini yaratishga kirishdi. Shu tariqa 1935-yilda yog'och gravyurasida davlat arbobi Yo'ldosh Oxunboboyev portretini yaratdi. Gravyura kontrast oq-qora shtrix, dog'larda ifodani ta'minlagan. Sadriddin Ayniy, Jambul, Abror Xidoyatov portretlari xam shu tarzda bajarilgan. Shuningdek, kolleksioner-rassom S. Malt, yozuvchi Zvezdinga ekslibris tayyorladi. Ekslibris - kitobning bezak belgisi va shaxsiy extiyojni anglatadi (ekslibris - knijniy znak).

V.Kaydalov qoraqalpok eposi «qirq qiz» dostoni ustida juda mukammal mexnat qildi. Dostonning asosiy qaxramoni Guloyimning qoraqalpoq xalqining mustaqilligi uchun kurashgani xaqida xikoya qiladi. Guloyim xushomadlarni rad etib, dushmanlarga qarshi kurashish maqsadida qirqta qizni saroyga yig'adi. Qalmiq xoni Surtayshox qizlar vatani-Sarxonga xujum qiladi. Jangda Guloyimning otasi xalok bo'ladi. Dushman xamma yoqni vayron qilib, xalqni asir oladi. Guloyim qirq dugonasi bilan xalqning- ozodligi uchun kurashib dushmandan qasdini oladi, jasorat ko'rsatib g'alabaga erishadi. Kitob

varaqaasi (muqovasi) qirqta qizning sardori navqiron, romantik Guloyim portreti bilan boshlanadi. Doston Qoraqalpoq xalqining Vataniga muxabbat, sadoqat, xaqiqat ozodlik uchun kurash g'oyalari bilan sug'orilgan. Guloyim portretidagi nozik psixologik obraz ukuvchi tasavvurini boyitada.

V. Kaydalov, shuningdek, 1948-yilda A.Navoiyning «Xamsa» dostoniga, 1949-yilda A.S.Pushkinning «Ruslan va Lyudmila» poemasi, 1950-yilda esa «O'zbek poeziyasining antologiyasi»ga illyustratsiya va badiiy bezaklar bezashda qatnashadi.

O'zbek grafika san'ati qudratli Vatanimizda ro'y berayotgan ijtimoiy siyosiy voqealarga xozirjavob bo'lishga xarakat qilmoqda. Ana shu intilishni amalga oshirishda sidqidildan ter to'kib ijod qilganlardan biri Qutlug' Basharovdir. Uning qator manzur va maqbul dastgoxli rasmlari, kitob bezaklari o'zbek tasviriy san'atida faxrli o'rinni egallab kelmoqda.

Qutlug' Basharov asarlarida obrazlarning kuchli va ta'sirchan badiiy sayqal topganligi, navatorlikka intilish xamda atoqli grafika ustalari kashfiyotidan ijodiy foydalanishga moyillik borligini ko'ramiz.

Ikki muxim jarayon - milliy madaniyat an'analari asoslari va xozirgi - zamon suratkashligi tajribalarini o'zlashtirish shu kungi o'zbek grafikasining o'ziga xos uslubiy jarayonini tashkil etadi. Ko'zlangan yuksak marralarga intilib, sidqidildan jasorat ko'rsatayotgan azamat paxtakorlarning mexnati Qutlug' Basharovning «Paxtakorlar» va «Paxta» turkumidagi linogravyuralarida o'z aksini topdi. Bu turkumdagi «Terimchilar» saxifasida uch dugonaning shodligi xayotiy va jozibali tasvirlangan. Xajman uncha katta bo'lmagan bu asar uch xil xarakterdagi ayolni, ularning kayfiyatini jonli talqin etilganligini ko'ramiz. San'atkorning «Onalik», «Xosil bayrami» linogravyuralari xar jixatdan yuksak maxorat bilan ishlangan. «Onalik» asarida dala qo'ynida ter to'kib kelgan ona erkatoyiga mexr-la ko'krak berib termulayotgan, shirin orzular bilan yashayotgan insonni tasvirlaydi. Onalik baxtining jonli, xayotiy talqinini topgan. «Xosil bayrami»da tog' bo'yi baland xirmon foni

shodlikning tarannum etilishi, baraka to'yining shodiyonasi to'la namoyon bo'lgan.

Xarbiy - vatanparvarlik mavzuida asarlar yaratish tasvir ustalarining doimo diqqat markazida bo'lgan. Rassomning «Chegarada» triptixida xalqimizning tinch, osoyishta turmush kechirishlari yo'lida sergak turib posbonlik qilayotgan jasur chegarachilarning xayoti xikoya qilingan. U shuningdek, «Vatan posbonlari», «Xamisha sergak», «Dushman o'ta olmaydi» kabi linogravyuralarini yaratdi.

Qutlug' Basharov Alisher Navoiyni buyuk shoir - g'azal mulkingning sultoni sifatida ko'rsatishga intildi. San'atkorning «Xamsa»dagi «Xayrot-ul-abror», «Sabbai sayyor», «Farxod va Shirin», «Layli va Majnun», «Saddi Iskandariy» dostonlaridagi kulminatsion voqealarni o'z mazmuniga monand qilib ishlangan linogravyuralari tomoshabinlar tomonidan yuqori baxolanib kelmoqda.

Linogravyuraning to'ngich dostoni «Xayrat-ul-abror»ga bag'ishlaigan qismida kishilarni yaxshilikka, dexqonlarning xalol mexnatini ulug'lashga, shoxlarni adolatli bo'lishga da'vat etiladi. Buyuk o'zbek ensiklopedist olim Abu Rayxon Beruniy tavalludining 1000 yilligi oldidan olim portretini yaratdi. Rassomning «O'zbek milliy sport o'yinlari» triptixini chovgan o'yinida to'rt chavandoz ot ustida turib xuddi markaziy qismidagi shaybali xokkeydek klyushkaga o'xshash burchakli tayoqcha bilan kichkina to'pni raqiblar darvozasi tomon surish nazarda tutilgan. Triptixning chap qismi «Yoy otish» deb nomlangan. Unda uch suvoriyning mo'ljalga yoy otishi tasvirlangan. Yoy mo'ljalga tez chopib ketayotgan ot ustida otilmoqda. Triptixning uchinchi qismi «Ro'mol olish—deb nomlanadi. Chavandoz yigit yerdan ro'mol olib, davradagilarning xayqirig'I ostida katta tezlik bilan ot ustida muvozanat saqlab chopayotgan suvoriylar, chavandozlarni tasvirlagan.

Rassom «Kuz ziynati» turkumida o'zbek elining naqadar to'kin-sochinligi, saxiyliги, oltin kuzning o'ziga xos fayzi, latofati, so'limligi xaqida baralla kuyladi. Buni «Kuz» litografik-allegorik triptixida ko'rishimiz mumkin. Qutlug'

Basharov o'zbek tasviriy san'atining yetuk vakili sifatida kitob grafikasi sohasida xam samarali ijod qildi. U dastlab R.Otayevning «Zumrad yaproqlar», S.Yo'ldoshevning «Chirchiq buyida», Mirmuxsinning « TUNGI chaqmoqlar», Ro'zi Qodiriyning «Kurash ilxomlari», Sulaymon Rustamning «Tanlangan she'rlar», Shuxratning «Sening sevging» asari kabi ko'plab badiiy asarlarni supermuqova, muqova, shmutstitullariga, ichki saxifalarning mazmuniga monand naqshli boshlama xarflar, yakuniy rasmlar bilan bezadi. Rassom yozuvchi Sharof Rashidovning «G'oliblar», «Bo'rondan kuchli», «Qudratli to'lqin» romanlariga rangli litografik rasmlar ishladi.

Kitobning muqovasi to'q qizil rangda bo'lib, muallifning nomi va romanning atamasi ixcham tarzda nafis zarxal xarflar bilan bezatilgan. Romanning muqovasi va maketi xam benuqson bajarilgan. Asarning shmutstitulida esa past - balandliklardan iborat cho'l manzarasi. Unda manzilga oshiqayotgan Oyoqiz, samoda esa cho'l burgutining parvozi tasvirlangan. Sharof Rashidovning «Bo'rondan kuchli» romani g'oliblarning mustaqil davomi Mirzacho'l bag'rida mexnat qaxramonlari tomonidan o'zlashtirilgan yangi yerda yetishtirilgan «Oq oltin» ni qum bo'ronidan saqlab qoladilar. Qutlug' Basharov xar ikki romanga chizgan badiiy rasmlari bilan yuksak professional malakaga ega bo'lgan kitob rassomi ekanligini yana bir bor namoyish etdi.

SH.Rashidovning «Qudratli to'lqin» romanida O'zbekiston mexnatkashlarining urushning og'ir yillarida front orqasidagi qaxramonona yaratuvchanlik va otashin vatanparvarlik faoliyati badiiy ifodalanadi. Romanning ichki bezaklari xayajonli voqealarga bag'ishlangan bo'lib, ona-Vatan qudratiga qudrat qo'shib, g'alabani tezlashtirish niyatida matonat ko'rsatib mexnat qilayotgan qaxramonlarning umumlashgan obrazini mexnat jarayonida yaratishga muvaffaq bo'ldi. Rassom rangli litografiyada «Yagona oila» asarini yaratdi. Unda 1966-yil 26 aprel tongida Toshkentda ro'y bergan tabiiy ofat umumxalq qaxramonligi tufayli tezda tugatilgani jonli tasvirlangan. U

serqirra, shijoatli rassom sifatida grafika madaniyati texnikasini egallagan kompozitsiya ustasi edi.

Respublikamizda kitob bezatish san'atida turli uslubda ijod qilgan iste'dodli rassomlardan biri Telman Muxamedovdir. Xajvga, o'tkir xazil-mutoyibaga ega bo'lgan iste'dodli nodir tabiatli T.Muxamedov yoshligidanoq dastlab «Mushtum» jurnali bilan xamkorlik qila boshladi. Muloyim, samimiy, yumor, satira, o'rtoqlik xazillari va qaxrli grotesk - bularning xammasi rassom tomonidan kundalik turmushning dolzarb mavzulariga bag'ishlab chizilgan yuzlab jurnal rasmlarida o'z ifodasini topdi. Keskin vaziyatlar, tiniq tasviriy uslub,

o'tkir xajv T.Muxamedov asarlariga xos xususiyatdir.

Rassomning kitob bezash soxasidagi ishlari uning badiiy asar mazmunini san'atkorona xis etishni ko'rsatadi. G'afur G'ulomningi <<Shum bola>> povestiga ishlangan suratlarida rassomning idroki, sezuvchanligi, kinoyali-istexzoli kayfiyatlarni xis etishdagi didi va quvnoq yumorga mayli bir-biri bilan uzviy bog'lanib ketgan. San'atkor o'z maxoratini namoyish qilishi uchun rasmda obrazning yuz tasvirini salgina shishinqiraganroq qilib ko'rsatish, qosh, yoylar va ko'zlarning joylashishini jindak o'zgartirish, gavdani sal boshqa tomonga burib, qo'l xarakatlarining ilg'ab bo'lmas xolatini qog'ozga muxrlash kifoya, xolos.

Rassom kitob muqovasi, ichki betlari xamda matnga chizilgan suratlarga bolani turli vaziyat va turli odamlar orasida tasvirlab, uning mukammal obrazini yaratadi. Kulgili, ichak uzdi voqealar va gaplar o'ylab topadigan, sho'x-shaddod bolachaga rassom o'ta xayrixox, uning qalbini yaxshi tushunadi. Eshon, boy, qalandar, bangilar esa achchiq xajv qilinadi. Telman Muxamedov ijodi ko'p jixatdan xalk ijodi va miniatyura san'ati an'analari bilan bog'liq.

O'zbek xalq ertaklari va Nasriddin afandi latifalariga chizilgan rangli suratlarda rassom miniatyura san'ati an'analari yo'lidan borib uning poetik fantaziyasini, rangining ravshan va musaffo manzarasini, shakllarning aniqligi,

xarakatlarning sərbast oxangini saqlab qolgan. Telman Muxamedov rasmlari bo'yoqlarning tiniq va latifligi, jilosining jonliligi, ranglar va chiziqlarning uyg'unligi bilan diqqatga sazovor. Bu suratlarining ifodasi xuddi adabiy manba usuli kabi sodda va tabiiydir. Rassom topgan ajoyib kulgili vaziyatlar o'zining aniqligi va aniq nishonga urishi, umidbaxshligi bilan kishini o'ziga rom etadi.

Rassom o'z rasmlarida axloq tushunchasining jiddiy va muxim tomonlarini bo'rttirib ko'rsatadi: xaqiqatning noxaqlik ustidan g'alabasini, oqko'ngillik, saxovat va beg'arazlikning qalbakilik, g'arazgo'ylik ustidan tantanasini ifodalab beradi. Rassomning kompozitsion yechimlar izlash, detallar tanlashdagi topqirligi, zukkoligi taxsinga loyiq. Ro'zg'or anjomlaridan bir-ikkitasini tasvirlash, libosning ayrim belgilarini ta'kidlash bilan xam tomoshabin ko'z o'ngida personajlar xayotidagi eng xarakterli manzaralarni yaratadi.

Rassom Nasriddin afandi latifalari va xalq ertaklariga chizgan rasmlarida ayrim qaxramonlarni, ayniqsa, bo'rttirish bilan tomoshabinda kuchli kulgi uyg'otadi va tasvirlanayotgan voqeaga nisbatni belgilab beradi. U oddiy kishilar, kambag'al-dexqonlar va Nasriddin afandi obrazini zo'r samimiyat bilan talqin etadi. Rassom xalq an'analaridan ilxomlangan va miniatyura san'atining boy merosidan baxramand bo'lgan, uning ijodi uchun quvonchli xususiyat bo'lib, RASSOM qobiliyatining serqirraligidan dalolat beradi. Telman Muxamedov o'z lavxalarida miniatyura san'atidan foydalanish bilan, avlodlar osha ardoqlanib kelgan bu qadimiy janrning boy tajribalaridan xozirgi zamon tasviriy san'atida, xususan, kitob grafikasida keng qo'llash imkoniyatlari mavjudligini namoyish etdi.

Iqtidorli grafik rassomlardan biri Medad Kagarov o'zining mustaqil ijodiy faoliyati davomida ko'plab grafik asarlar turkumini yaratishga muvaffaq bo'ldi. U ayniqsa kitob grafikasi san'atining moxir ustasi darajasiga yetib, xalqaro ko'rgazmalarda asarlari yuqori baxolanib kelmoqda. Kagarov erishgan yutuqlari bilan hech qachon chegaralanib qolgan emas. Uning grafikasida

biz samimiyatga to'la qalbni, zamon nafasini, bashariyat ovozini eshitayotganday bo'lamiz. Teran yangi g'oyaviy, badiiy obrazlar topish, yuksak badiiy maxoratini namoyon etish uning ijodiga xos fazilat. Uning mazmunga boy «Jonajon o'lkam», «Tarjimai xol - 2», «Abdulla Oripov she'riyati», «O'zbekistokistonning oq oltini», «Sport, sport, sport», «Bodom gullayotgan chog'da», «Fasllar» kabi turkumlari o'zbek rassomlarining sara asarlari xazinasidan, Davlat muzeylaridan joy olgan. Bularning xammasi bo'lg'usi grafikachi rassomlar uchun yaxshigina maktab vazifasini o'tashi mumkin. «Fasllar» turkumi musavvirining rangli avtolitografiyada xam ajoyib asarlar yaratilishidan dalolat beradi, Mazmun va shaklning o'ta uyg'unligi, obrazlari ko'lamdorligi bizni xar xil muloxazalar yuritishiga undaydi, iliq taassurotlar uyg'otadi. So'nggi yillarda Kagarov texnik avtolitografiyada yuqori natijalarga erishdi.

Mundarijasi badiiy ifoda qudrati ko'lamli bu asarlarning bosh mavzusi TINCHLIK uchun kurash, bashariyatning farovon kunlari xaqidagi g'oyalaridir. Minglab yillar davomida ajdodlar tomonidan barpo etilgan boyliklarni saqlab qolish va uni kelajak avlodga yetkazish - asarlarni birlashtirib turadigan asosiy chizg'idir.

70-80-yillardagi kitob grafikasi rassomlaridan biri Anatoliy Bobrovdur. U Xamid Olimjonning «Semurg» (G'ofur G'ulom nashriyoti, 1979 yil) asarining kitob bezagi ustida ishlagan. Adabiy materialning o'zi - xalq ertaklari mavzusidagi shoir fantaziyasi rassomga uning illyustratsiyasi uchun zarur vositalar bo'lib xizmat qiladi.

Rassom - Sharq miniatyuralari obrazlariga tayanadi, go'yo ularni yangi zamon grafikasi tiliga tarjima qiladi. Rassom qoralama erkin chizishni detallarni batafsil modellashtirish bilan qo'shib olib boradi. Qo'llar, izlar, kiyimlarning muxim bo'laklari aloxida diqqat - e'tibor bilan qog'ozga tushiriladi. Ifodalashdagi dinamikaga asosan murakkab rakurslar xisobiga, shuningdek rang (akvarel, belila) yordamida erishiladi, bu rangdagi ma'lum joyga tushirilgan

dog'lar aniq va shirali suratga manzaradorlik baxsh etadi, uning xis-tuyg'uga ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Super muqova, frontispis, illyustratsiyalarga boy qimmatli sovg'a nashri sifatida ishlangan kitobning shinam va bejirimligini, shunga yarasha shaklining nafis va zavqbxashligini ta'minlaydi. Ilyustratsiya materiali qat'iy ritmga bo'ysundirilgan, saxifaning maqbul xajmi topilgan. Suratga qo'lda yozilgan shriftlarning kiritilishi, bu ijodkorga xos bo'lgan uslub. Kitobni yaratish ishini boshlashda illyustratsiya mazmunini ilg'ash uchun vosita sifatida qo'llangan bunday shriflar bir jixatdan bezak elementi sifatida, ikkinchi tomondan illyustratsiyaning matnga taalluqliligini belgilab beruvchi sifatida kompozitsiyaning ajralmas qismi bo'lib qoladi.

Rassomning bezagan kitoblari orasida A.S.Pushkinning mashxur asari «Baliqchi va baliq xaqida ertak» aloxida o'rin egallaydi.

«Baliqchi va baliq xaqidagi ertak» xamma yoshdagi kitobxonlarga mo'ljallangan. Unga ishlangan rasmlar xali o'qiy olmaydigan yosh bolalarni xam qiziqirishga mo'ljallangan. Rassom ertak personajlarini yetarlicha batafsil muxabbat va yumor bilan tasvirlaydi. Turmush ashyolari, kiyimlar, uy-ro'zg'or buyumlari nixoyatda aniq yaratilgan - kichkintoylar tomosha qiladigan va eslab qoladigan narsalar yetarlicha. Kitobcha - daftarchaning xajmi she'rii o'lchov matniga muvofiq tarzda tanlangan. Saxifalarning katta illyustratsiyalari umumiy tarkibdan chiqib ketmaydi, kitobcha kitob san'atining bir butun asariday qabul qilinadi.

Plakat - tomoshabinga tezda ta'sir etuvchi bir necha ranglar ishtirokidagi grafik tasvirdir. Plakat san'ati tasviriy san'atning boshqa turlaridan mavzunining o'tkirligi, dolzarbligi va ranglar yorqinligi bilan ajralib turadi. Plakat san'ati grafika kabi refleks, «poluton» qora bo'yoq va oq qog'oz bilan soya yorug'ini ifodalaydi, shakllanadi. Bunda asosan oq va qora kontrastlar va kontur muxim rol o'ynaydi.

Plakat san'ati Rossiyada 30-40 yillarda, O'zbekistonda 40-yillarda rivojlandi. Plakat san'atining rivojlanishga M.Cheremnx, D.Moor, V.Deni, Kupriyanov, Nikolayev, Sokolov kabi rassomlar munosib xissa qo'shdilar. Odam qiyofasi tasvirlangan plakat boshqalariga nisbatan ajralib rassomdan chuqur bilim va mutaxassislik maxoratini talab etadi. Odam qiyofasi tasviridagi plakat tomashabin qalbida chuqur iz qoldirishi kerak. Shuning uchun kompozitsiyada mayda detallarni keragicha idrok bilan taxlil etish talab qilinadi. Buning uchun 1921- yilda Volga bo'yida yuz bergan ocharchilikka bag'ishlangan «Pomogi» nomli plakatni misol qilib keltirish mumkin. Rassom ortiqcha detallardan voz kechib, dexqon kiyimiga odam qiyofasi - yuz, qo'l, oyoqlarini qora fonda ifodali tasvirlab, pastki planda esa singan, quruq, bug'doy boshogi tasvirlangan, butun mazmun bir so'z - «pomogi» so'zi bilan o'z yechimni topgan. Bu asarda singan, quruq bug'doy boshog'i orqali qurg'oqchilikni, onalar ko'z yoshi, bolalar ko'zidagi qo'rquv o'z ifodasini topgan. Ko'p yillar o'tishiga qaramay bu plakat o'z moxiyatini yo'qotgan emas.

Rassom mo'yqalami va shoirning otashin so'zlari xamkorligida II jaxon urushi yillari «OKNO TASS», «Boyevoy karandash» tashkil etildi. Vatan ximoyasiga chaqiruvchi ko'p plakatlar chiqarildi. «Fashist boskinchilariga o'lim!», «Berlingacha boramiz!» nomli plakatlar shular jumlasidandir. O'sha yillari O'zbekistonda Rojdestvenskiy, N.Kashina, Usta Mo'min, L.Abdullaev, V.Kandalov, Venediktov, S.Malt, M.Reyx kabi rassomlar plakat janrida ijod qildilar. Keyinchalik 60-80-yillari xalq xo'jaligini rivojlantirishga ekologiya, Orol muammosiga, yig'im - terim mavzulariga bag'ishlangan plakatlar yaratildi. V.Evenko, B.Jukov, A.Balkanov, F.Kagarov, N.Ten, X.Xasanov, A.Ziyayev kabi rassomlar O'zbekistonda plakat san'atining rivojiga o'z xissalarini qo'shdilar.

Boshlariga do'ppi kiyib, beqasam to'n ustidan qiyiqcha bog'lagan yigitlarning karnay-surnay chalayotgani va o'ynab turgan qizning tasviri. «Xosil

bayrami» deb nomlangan bu plakatda o'zbek xalqining iftixori bo'lmish «Oq oltin» plani ko'ngildagidek bajarilgani ifodalanadi.

### **Ikkinchi bob yuzasidan qisqacha xulosalar**

Xar bir san'at asarini yaratishda mazmun va g'oyaning asosiy yechimi eskizda o'z aksini topishi lozim. Keyinchalik eng yaxshi bajarilgan eskiz tanlab olinadi. Izlanish jarayonida kompozitsiyaga kerakli detallarni, narsalarni aniqlab olish lozim, mavzuda sodir bo'layotgan voqeaning markaziy qismini topish kerak. Eskiz bajarish jarayonida yaxlitlik, masofa, keyinchalik, xavo perespektivasi qonunlariga asosiy va ikkinchi darajali gurux xususiyatlariga, kolorit tanlashga aloxida axamiyat berish o'rindir. Kompozitsiya tuzilishini topish uchun naturadan - odamlar guruxidan tezkor chizgilar, eskizlar bajarish zarur. Chunki o'tkir qobiliyatni ijodiy tasavvur, «fantaziyani» shakllantirish aynan shu jarayonda sodir bo'ladi. Bu ijodiy jarayondagi o'ziga xos ko'nikmalarni xosil qilish uzoq vaqt mashq qilib ishlashni talab etadi.

Kompozitsiya-bu muallifning ijodiy, badiiy ifodasi, maxsuli xisoblanadi. Shunday ekan tasviriy san'atning barcha janrlarida kompozitsiya yaratish yuksak darajada bilim, ko'nikma, malaka hamda qobiliyat, saloxiyatni talab etadi. Shu bois bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan vaqtdanoq keng qamrovli faoliyatga o'zlarini tayyorlab borishlari lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki ikkinchi bobda yuqorida keltirilgan fikrlar o'zining to'la ifodasini topgan.

## **Xulosa.**

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish masalasi muhim ahamiyatga aylanib bormoqda.

Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir.

Shunday ekan barkamol avlodni tarbiyalashda tasviriy san'at va uning tur hamda janrlarining hozirgi kundagi ahamiyati, rivojlanishi, ayniqsa portret janridagi ilg'or g'oyalarning yuksalishida bitiruv malakaviy ishining mavzusida keltirilgan izlanish va fikrlar ijodning yangicha g'oyalarini oldinga suradi.

“Endigi vazifamiz shundan iboratki, tasviriy san'atning milliy istiqlol g'oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyolilarimiz, ilm-fan va madaniy namoyandalari, avvalo, shu qatori tasviriy san'at ustalari milliy mafkurani takomillashtirish hamda uning asosiy tamoillarini odamlar ongi va qalbiga sindirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishlari zarur.

Asrlar davomida orttirgan tasviriy san'at sohasida erishilgan va erishilib kelayotgan yutuqlar insoniyatning madaniy boyligiga yanada chuqur o'rinish bormoqda.

Bundan shuni ko'rish mumkinki o'zbek musavvirlarining buyuk asarlar tarixda ajdodlarimiz bizga meros qilib qoldirgan nodir namunalar tajribalari asosida yaratilayotgan yangi san'at asarlari taraqqiyotga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Shuning uchun xalqimizning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san'atni ko'z qorachig'idek saqlash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning eng muxim vazifalaridan biridir.

Bitiruv malakaviy ish orqali ko'tarilgan muammo atroflicha o'rganildi bob va paragraflarda yoritib taxlil qilishga xarakat qilindi. Bu bajarilgan tarqiqot albatta o'z natijasini beradi deb o'ylayman.

Rassom – mutahassis tasviriy san'atda kompozitsiya asoslari qonun-qoidalarini mukammal bilmog'I lozim.

Bitiruv malakaviy ishini yoritish davomida quyidagi hulosalar yuzaga keladi. Kompozitsiya asoslari insoniyat tarixida juda qadimdan yuzaga kelgan va rivoj topa boshlagan. San'at sohasida ijod qilgan insoniyatning buyuk ajdodlari kompozitsiyali asarlar yaratish sohasida bizga me'ros qilib qoldirgan ilmiy ijodqonunlari hozirgi davrga kelib ham insoniyat taraqqiyoti uchun hizmat qilmoqda. Shunga asosan zamonaviy davr talablaridan kelib chiqib, kompozitsiya qoidalari va asoslari hozirgi kunda tasviriy san'atning barcha sohalariga yanada mukammal kirib bormoqda. Bu mavzuning bitiruv malakaviy ishida muhokama etilishi esa talabaning bilim olish jarayonidagi ilmiy va ijodiy fikrlarini yanada takomil bosqici darajasiga ko'tardi.

### **Tavsiyalar.**

Bizni vazifamiz shundan iboratki men ta'lim berayotgan muassasada ham kelgusida o'z bilim va ko'nikmalarimni ishga solib kompyuter saboqlari mashg'ulotlarida qo'shimcha tasviriy san'at laboratoriyasini tashkil etib

Bunda

O'quvchilarga zamonaviy innovatsion texnologiyalar texnikalarning hayotimizga kirib kelishi tasviriy san'atning yangicha tasvirlash usullarini paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli Zamonaviy tasviriy san'atni rivojlanishida kompyuter grafikasi sohasida ham mukammal mutaxassis sifatida rassom dizaynerlar faoliyat yuritsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu kompyuter grafikasi sohasida bolalarga fotoshop, kompyuterda rasm chizish qoidalarida kjompozitsion jarayonlarning qo'llanilishi kabi sohalarda tasviriy san'at qonun-qoidalari asosida to'liq va aniq ma'lumotlar berib borish mashg'ulotlarini tashkillamoqchiman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. I.A.Karimov. “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. Toshkent “O'zbekiston”.1997 yil
2. I.Karimov. “Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori“. Toshkent. 1997 yil
3. I.Karimov. “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” .Toshkent 2008 yil.
4. I.Raxmonov “Perspektiva” Toshkent “O'qituvchi” nashriyoti 1993 yil.
5. T.Qo'ziyev, E.Egamov, T.Qanoatov, A.Nurqobilov “Rangtasvir” “San'at” jurnali nashriyoti Toshkent-2003 yil.
6. A.Egamberdiyev, S.Saidova, R.Rajabov “Tasviriy va me'morchilik san'ati tarixi” “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2007 yil.
7. B.Boymetov. “Qalamtasvir” Toshkent “ILM-ZIYO” nashriyoti 2007 yil.
8. O.mo'yinov “Rangtasvir” Toshkent “Sharq” matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2007 yil.
9. G'.A.Artiqov. “Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi” Toshkent “Sharq” matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2007 yil.
10. S.S.Bulatov “Rangshunoslik” O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent-2009 yil.

11. R. Hasanov “Tasviriy san’at asoslari” G’.Gulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi Toshkent-2009 yil.

12. B.Boymetov. “Plastik anatomiya” (Amaliy mashg’ulotlar) Toshkent 2011 yil.